

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITYETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:336.74:658.01(575.1)

Reimova Dilorom Valijonovna

**TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPYERASIYALARINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

5A230701-Bank ishi (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Temirov A.A.

Toshkent – 2018

Mazkur magistrlik dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida depozit operatsiyalarining nazariy jihatlari yoritib berilgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida amaldagi depozit operatsiyalarining amalga oshirilishi holatining tahlili tijorat banklari misolida bajarilgan. Muallif tomonidan depozit operatsiyalari va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, depzit operatsiyalari va ularni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning hal etilishiga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

At this master dissertation theoretical aspects of deposit operations in commercial banks of the Republic of Uzbekistan were provided, as well as the analysis of current status of deposit operations in commercial banks of the Republic of Uzbekistan. Autor has developed the deposit operations and recommendations and recommendations for their improvement.

In general, the necessity of elaborating scientific recommendations and practical recommendations aimed at solving problems related to cash flow operations and their improvement determines the urgency of this master's thesis.

Magistrlik dissertatsiya ishi “Bank ishi” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tdi.
_____sonli bayonnoma «_____» _____2018 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Temirov A.A. . “_____” “_____”

Taqrizchi: i.f.n., dots. Quvnoqov H.Q. “_____” “_____”

Magistr: Reimova D.V. “_____” “_____”

Himoyaga ruxsat etiladi -----

“Bank ishi” kafedrasida mudiri dots. Nasriddinov F.N..

“-----“ iyun 2018 yil.

Himoya Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetida

2018 yil “_____“ iyunda soat “_____” bo‘ladi.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPYERASIYALARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	7
1.1. Banklarning depozit operatsiyalari va ularning turlari	7
1.2. Bank resurslari va ularning tarkibi	17
1.3. O‘zbekiston Respublikasida depozit operatsiyalarining huquqiy asoslari	25
1-bob bo‘yicha xulosalar	33
2-BOB RESPUBLIKA TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARINING AMALGA OSHIRILISHINING TAHLILI	35
2.1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankining iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlari	35
2.2. Bank depozit mablag‘lari zamonaviy holatining tahlili	42
2.3. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankida jalb qilingan mablag‘lar va ular holatining tahlili	52
2-bob bo‘yicha xulosalar	57
3-BOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEPOZIT OPERASIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	60
3.1. Tijorat banklari faoliyatida depozitlarni jalb qilishning yo‘llari	60
3.2. Banklarning depozit operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari	66
3-bob bo‘yicha xulosalar	72
XULOSA VA TAKLIFLAR	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	78

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bozor munosabatlarning muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zamirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini tashkil qilish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimi ulkan ahamiyatga ega. Biz aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirmasdan turib, “yashirin iqtisodiyot”dan to‘liq xalos bo‘la olmaymiz.”¹.

Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va uzluksizligi birinchi navbatda banklarning resurslari bilan qanchalik yetarli ta’minlanganligiga bog‘liq. Tijorat banklari moliyaviy resurslari ma’lum shartlar asosida jalb qilingan va bankning o‘z mablag‘laridan tashkil topib, bank daromadini shakllantirish maqsadida aktiv operatsiyalarga yo‘naltirilgan moliyaviy manba hisoblanadi. Jalb qilingan mablag‘lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo‘lib, bank resurslarining 70 foizidan ortig‘ini tashkil qiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo‘jaligining va aholining qo‘shimcha aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi. Banklar mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo‘lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag‘lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

Ikki pog‘onali bank tizimiga o‘tilishi, iqtisodiy mustaqil tijorat banklarining tashkil topishi, banklarning o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyiliga o‘tishi, passivlar va aktivlar muvofiqligiga erishish muammosi bank faoliyatida dolzarb masalalarga aylandi. Bozor munosabatlarning rivojlantirish bank

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uznet.press>

resurslarining ham turli-tumanlashuviga olib keldi. Banklar uchun hozirgi iqtisodiy sharoitdan kelib chiqqan holatda bank resurslarini shakllantirishda depozitlarni jalb qilish masalasini yanada rivojlantirishlari maqsadga muvofiqdir, chunki ular to'lov tizimida yengilliklar olib keladi hamda Markaziy bankdan hisobga olish amaliyotini oshirish orqali pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanish osonlashtiradi. Shu jihatlari bilan talangan mavzu dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ob'ekti va predmeti. Magistrlik dissertatsiyasining ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining, xususan "Mikrokreditbank" aktsiyadorlik tijorat bankining depozit operatsiyalari bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti bo'lib tijorat banklarining depozit operatsiyalari bo'yicha amalga oshiradigan iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi bank tizimini, xususan "Mikrokreditbank" aktsiyadorlik tijorat banki depozit operatsiyalarini tahlil qilish va baholash masalalarini yaxlit tarzda o'rganish asosida ularni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

-tijorat banklarida depozit operatsiyalarining mohiyati va mazmunini tadqiq qilish;

-ayrim xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida depozit operatsiyalari amaliyotining muammolarini aniqlash;

-tijorat banklariga resurslar jalb qilishni rivojlantirish yo'llarini ko'rib chiqish;

-tijorat banklarida depozitlarni jalb qilishni samarali tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy farazlari. Banklarga resurslar jalb qilish va ularni boshqarish masalalarini o'rganish bo'yicha berilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar tijorat banklarining depozit operatsiyalarining sifati va shaffofligini yanada oshirishga xizmat qiladi hamda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-depozit operatsiyalarining mohiyatini o'rganish asosida ularni jalb qilish amaliyotidagi ayrim muammolar o'rganilgan;

–depozit operatsiyalarining mohiyati va uning tavsifi yoritilgan;

–depozit operatsiyalarini amalga oshirish bosqichlarini o'rganilgan;

–depozit operatsiyalari mexanizmi tahlil qilingan;

–depozitlar jalb qilishni ko'paytirish va uni boshqarish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining moliyaviy resurslar jalb qilish masalalari bir qator xorijlik iqtisodchilar, jumladan, K.Baynke, Ye. Vasilishen, A. Gryaznova, Ye.Dolan, V.Kolesnikov, O.Lavrushin, J. Matuk, G.Panova, Dj Sinkening ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Yo.Abdullaev, Sh. Abdullaeva, A.Kamolov, I.Toymuxamedov, O.Rashidov, T.Qoraliev, O.Olimjonov, A.Kadirovlarning ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida jihatlari o'z aksini topgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan usublarning qisqacha tavsifi. Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, tizimli yondashuv, tahlil va sintez usullari ko'llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishning natijalari resurslarni jalb qilish va uni rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi banklari faoliyatida moliyaviy resurslarini shakllantirishda, shuningdek depozitlarni jalb qilish amaliyotini rivojlantirish bo'yicha foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya ishi materiallaridan oliy o'quv yurtlari va kollejlarda "Bank ishi", "Pul, kredit va banklar", "Banklarda buxgalteriya hisobi" va boshqa bank bilan bog'liq fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya ishning ilmiy yangiligi. Respublikamiz tijorat banklari amaliyotida depozitlarni jalb qilish amaliyoti va ularni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalarning asoslanganligi hisoblanadi va ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-bank resurslari mohiyatini o'rganish asosida ularni jalb qilish amaliyotidagi ayrim muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

– bank depozitiga muallif ta'rifi berilgan;

– banklarga depozitlarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiya ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiliklar va ishning tarkibiy tuzilishi asoslab berilgan.

Ishning birinchi bobida tijorat banklarida depozit operatsiyalarini tashkil etishning nazariy asoslari bayon etilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining ikkinchi bobida respublika tijorat banklarida depozit operatsiyalarining amalga oshirilishining tahlili keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasida depozit operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari mazkur ishning uchinchi bobida yoritilgan.

Ishning xulosa qismida esa bitiruv malakaviy ishini amalga oshirish jarayonida shakllantirilgan xulosalar va ishlab chiqilgan amaliy takliflar keltirilgan.

1-BOB. TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERASİYALARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Banklarning depozit operatsiyalari va ularning turlari

Respublikamizda amlaga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, yangi shart-sharoitlarga mos pul-kredit siyosatini yuritish va uni sifat jihatdan takomillashtirishni hamda bu yo'nalishda aniq belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etdi va bunga imkoniyat yaratdi. Shu nuqtai nazardan, yangi iqtisodiy voqealarda milliy valyutaning barqarorligiga asosan uning ichki xarid qobiliyati pasayishining yoki mamlakatda narxlarning oshishini oldini olish orqali erishish mumkinligini inobatga olib, Markaziy bank tomondan 2018 yildan boshlab pul-kredit siyosatini amalga oshirishda, asosiy e'tibor, iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratiladi.

Ta'kidlash lozimki, kelgusida narxlar o'sish sur'atlarining pasaytirib borilishi va barqaror past inflyatsiya darajasining ta'minlanishi iqtisodiyotning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanishi uchun eng zarur shartlardan hisoblanadi. Xususan, inflyatsiya va u bilan bog'liq kutilmalarni barqaror past sur'atlarda bo'lishiga erishish uzoq muddatli investitsiyalar hajmining oshishiga va bu uchun kerakli bo'lgan jamg'armalarning shakllanishiga xizmat qiladi².

O'tgan yilda belgilangan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, inflyatsiya darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha o'rnatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga mutanosib ravishda pul agregatlarining o'zgarish dinamikasini boshqarib borishda pul-kredit siyosatining tegishli instrumentlaridan foydalanildi. Bunda asosiy e'tibor bank tizimida ortiqcha likvidlikni shakllantiruvchi va inflyatsion bosimning oshishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillar xususiyatiga qaratildi.

² 2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga mo'ljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz

Tijorat banklari boshqa xo‘jalik sub’ektlari kabi o‘zining xo‘jalik va tijorat faoliyatini ta‘minlash uchun ma‘lum miqdorda pul mablag‘lariga, ya‘ni resurslariga ega bo‘lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya‘ni iqtisodiyotning bozor modeliga o‘tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o‘zgaradi. Bundan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ob’ekti orqali aniqlanadigan bank faoliyatining ko‘lami, ular joylashtiradigan resurslar hajmi, miqdori, jalb qilingan mablag‘lar summasiga bog‘lik bo‘ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo‘yicha banklar o‘rtasida raqobatni keltirib chikaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo‘sh pul mablag‘larini mumkin qadar ko‘prok jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bank resurslarini ikki katta guruhga bo‘lish mumkin. Bular, banklarning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lardir. Jalb qilingan resurslarni ba’zi hollarda ikkiga bo‘lib qaraladi – bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya‘ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o‘zaro chambarchas bog‘lik bo‘lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko‘p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o‘zgarishi ham ta’sir kiladi.

Tijorat banki o‘z mijozlarining bo‘sh turgan mablag‘larini qarzga olish bilan bir vaqtning o‘zida bu mablag‘larni o‘z vaqtida qaytarilishini ta‘minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo‘lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur

shartlaridan boʻlib, ular aholining boʻsh turgan pul mablagʻlarining bankka sari oqimini taʼminlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali boʻlgan holatda mijozlar oʻz mablagʻlarini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati toʻlovlar amalga oshiriladi, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa oʻz navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Tijorat banklari uchun bank resurslari tarkibiy tuzilishi turli xillik bilan farqlanadi. Bu uning oʻziga xos xususiyatlari bilan tushuntiriladi. Ikkita tijorat banki resurslarining tarkibiy tuzilishi quyidagi maʼlumotlar bilan xarakterlanadi.

Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda oʻzgartirib turishni ham oʻz ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona foydalanishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bank passivlaridan samarali foydalanish depozit siyosatining oqilona yuritilishidan iborat boʻladi³. Shu sababli ham, tijorat banklari resurslarining tarkibini tadqiq qilishdan oldin bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan har tomonlama chuqur oʻrganish maqsadga muvofiq boʻladi deb oʻylaymiz.

Iqtisodiy manbalarda “resurs” soʻzi turli xil maʼnolarda, yaʼni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa koʻrinishlarda uchraydi. Iqtisodiy resurslarning asosiy qismini moliyaviy resurslar tashkil etib, ular iqtisodiyotning rivojlanishini taʼminlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablagʻlarini tashkil qiladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan nazariy manbalar hamda amaliyotchilar iqtisodiy tahlillarini oʻrganar ekanmiz, shu narsaga amin boʻldikki, «bank resurslari» tushunchasiga katta eʼtibor berilgan. Xususan, E.Rid, R.Kotter,

³ Банковская дело. Учебник. Под редакцией О.И. Лаврушина . -М.: Фин. и статистика. 2009 г. стр.520

E.Pill va R.Smitlarning fikricha, bank resurslarini tadqiq etishda banklarning passiv operatsiyalarini chuqur tahlil qilish zarur⁴.

D.Polfreman va F.Fordlar fikricha, bank faoliyatini tahlil qilishda bank resurslarini bank passivlari sifatida ko‘rib chiqishgan va bank aksionerlari mablag‘lari va jamg‘armachilarining mablag‘laridan tashkil topgan. Bank resurslari nafaqat qarz majburiyatlari yoki egalik huquqini olish uchun mablag‘ jalb qilish, balki bank uchun daromad keltiradigan zahira va imkoniyat hamdir⁵.

Rossiyalik olimlardan O.Lavrushinning fikriga ko‘ra, tijorat banklarining resurslari bank ixtiyorida bo‘lgan o‘z va jalb qilingan resurslari yig‘indisi bo‘lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi⁶. G.S. Panovaga ko‘ra “depozitlar - mijozning bankka ma’lum bir talablari borligini tasdiqlovchi hisoblar yoki bitimlar va shartnomalarga asosan mijozlarning banklarga omonat shaklida qo‘ygan pul mablag‘laridir”⁷. Boshqa rus olimlaridan

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.Boboev bank resurslarining mohiyati, tarkibi, resurslarni shakllantirish bilan bog‘liq muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini keng ochib berishga harakat qilgan.

Tijorat banklarining resurslari o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘lar hisobidan tashkil qilinishini ularning manbalariga ko‘proq e‘tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Shu sababli ham tijorat banklari resurslari mohiyatini ta’riflaganda ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e‘tiborga olish bilan bir qatorda mablag‘lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko‘zda tutish lozim bo‘ladi.

Iqtisodchi olimlarning fikrlarini o‘rganish asosida bank resurslariga muallif ta’rifini yaratishga muvaffaq bo‘ldik. Fikrimizcha, bank resurslari bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘z va jalb qilingan mablag‘laridan tashkil

⁴ Е.Рид, Р. Коттер, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991г. стр.-16

⁵ Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. Перевод с англ. Москва инфра 2006 г. стр.-102

⁶ Банковская дело. Под редакцией О.И. Лаврушина М.Фин. и статистика. 2009 г. стр.68

⁷ Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка, - М.: 2006 стр. 68

topgan, shuningdek, bankning daromad olishiga asos bo'luvchi imkoniyatlar majmuidir.

Banklarning jalb qilingan mablag'lari asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi. Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi. Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo'lib hisoblanadi.

Bank passivlari bank resurslarining tashkil qilish manbasi bo'lib, uning hajmi bir necha omillarga bog'liq. Bular:

- banklarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan faoliyati;
- pul-kredit siyosatini boshqarish sohasidagi Markaziy bankning siyosati;
- bankning jalb qilingan mablag'lari va ularning tarkibi;
- tijorat banki tomonidan Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy zahira miqdori;
- boshqa passivlar.

Depozit hisobvaraqaqlari turlicha bo'lishi mumkin va ularning tasniflanishi asosida qo'yilmalar manbai, ularning maqsadli yo'naltirilganligi, daromadlilik darajasi va boshqa shu kabi mezonlar inobatga olinadi. Aksariyat hollarda resurslar uning egalari nuqtai nazaridan tasniflanadi. Xususan, depozitlar yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar) va jismoniy shaxslar tomonidan qo'yiladi. Muddatiga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- muddatli depozit mablag'lar;
- talab qilib olingunga qadar depozit mablag'lar;
- aholining jamg'arma qo'yilmalari.

O'z navbatida bu guruhlarining har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning yuqori likvidlik darajasini ushlab

turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqib turli aktivlarga joylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida jami shaklantirilgan majburiy zaxiralar tarkibida milliy valyutadagi mablag'lar ulushi yil boshidagi 60 foizdan 2017 yil 1 noyabr holatiga 8 foizgacha kamaygan. Bu o'z navbatida, mazkur davrda tijorat banklari tomonidan milliy valyutadagi likvidlikka bo'lgan talab yuqori darajada saqlab qolinayotganligini aks ettirib, banklar tomonidan so'mdagi likvidlik bo'yicha tanqislikni qoplashda ushbu instrument ham asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida o'tgan yil davomida banklararo pul bozoridagi, shuningdek, tijorat banklarining depozitlari va kreditlari bo'yicha foiz stavkalari pulga bo'lgan talab va taklif, inflyatsiyaning joriy hamda kutilayotgan darajasi, shuningdek, Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan instrumentlar ta'sirida shakllanib bordi.

Tijorat banklarida likvidlik miqdorining pasayishi, o'z navbatida banklararo pul bozorida mablag'larni jalb qilish bo'yicha operatsiyalar hajmining ham sezilarli o'sishiga olib keldi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 70 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Tijorat banking depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob'ekt va sub'ektini aniqlash lozim.


Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit schetlarining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvaraqlarini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va, nihoyat, mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog'liq.

Muddatsiz depozitlar – bu mijoz tomonidan o‘z mablag‘ini xoxlagan paytda xech qanday oldindan ogoxlantirmay olinishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar tushuniladi.

Muddatli depozitlar – bu bank tomonidan ma’lum bir muddatga jalb qilinadigan mablag‘lardir. Muddatli depozitlarda mablag‘ shartnomada keltirilgan muddatga bankka foydalanishga topshiriladi. Bu muddat tugashi bilan uning egasi mablag‘ni qaytarib olishi mumkin. Jalb qilingan mablag‘lar ichida muddatli depozitlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidiligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ular tomonidan jalb qilingan mablag‘lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi.

Quyidagi rasmda bank depozitlarining turlari keltirilgan.



1-rasm. Bank depozitlarning turkumlanishi⁸

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag‘lar tarkibi talab qilib olinguncha

⁸ Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

depozitlar turlicha hajmga ega. Bu odatda, bank resurslarini shakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag'larning yuqori harakatchanligi tufayli talab qiluvchi hisobvarag'alardagi qoldiq doimiy emas, ba'zida juda o'zgaruvchan. Hisobvara egasi istagan paytda mablag'larni olish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko'proq bo'lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlika ega bo'lgan biroq yuqori daromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. Shu sababli talab qilgungacha hisobvarag'i egalarga past foiz to'laydilar yoki umuman to'lamaydilar. Biroq, talab qilguncha hisobvaraqaqdagi mablag'larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan ularning minimal, doimiy qoldig'ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo'lmog'i lozim.

Tijorat banklarining depozitlari quyidagi guruhlariga bo'linadi⁹:

- talab qilib olinguncha (muddatsiz) depozitlar;
- muddatli depozitlar;
- aholi jamg'armalari;
- qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish.

Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'liqdir. Qo'yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo'lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. Shu bois tijorat banklari muddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim.

Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;
- joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;

⁹ Abdullaeva Sh. Bank ishi. –T.:Moliya, 2016. -579 b.

- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;

- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi;

- majburiy rezerv normasi nisbatan past bo'lishi mumkin va h.k.

Talab qilinguncha bo'lgan depozitlar bo'yicha hisobvaraqlari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bunday hisobvaraqlar gruppasi daromadlik darajasi bilan ajralib turadi.

Yuridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i bo'yicha foizlar umuman to'lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlardan hisob kassa xizmatlari uchun to'lov mablag'larini talab qilinguncha hisobvaraqlarda mablag'larni minimallashtirish va ortiqcha summalarni qo'yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi.

Jismoniy shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha varaqlar bo'yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o'rnatiladi, ammo u bo'yicha daromad hamisha muddatli qo'yilmalarga qaraganda pastroq bo'ladi.

Muddatli qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkasi, hajmini o'rnatishdagi muhim omil bo'lib, mablag'lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi. Markaziy bank emissiya markazi sifatida makroiqtisodiy darajadagi pul aylanishi hamda bank tizimining likvidliligi nuqtai nazaridan tijorat banklarining ularda jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini doimiy ravishda tartibga solib turadi. Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zahira talablari bank tizimida depozit va kreditlarni oshirishning bevosita cheklovchisi bo'lib xizmat qiladi.

Bank resurslarining muhofazasining ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan ham bir qator tadbirlar ishlab chiqilganligini ham inobatga olgan holda, ayrim amaliyotlarga cheklovlarni ham keltirib o'tishimiz mumkin, masalan dahldor shaxslar bilan amaliyotlar hamda bir kredit oluvchiga nisbatan kreditning maksimal miqdorini belgilanishi, hamda kapitalning adekvatligiga qo'yiladilar talablarni ham shu yulda qilingan ishlar qatorida olishimiz mumkin.

Resurslar barqarorligi masalalarini ko'rayotganda omonatlarni kafolatlanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki ushbu holatning borligi mijozlarning banklarda mablag' saqlash psixologiyasiga ta'sir etuvchi eng zarur omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida omonatchilarning omonatlarini himoya qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002 yildagi 326-sonli qarori bo'yicha "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi" tashkil etilgan¹⁰. Fond faoliyatining maqsadi, bankning bank operatsiyalarining amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chiqarib olingan taqdirda, fukarolarning banklardagi omonatlariga ham to'lanishini qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarda va miqdorda kafolatlashdan iboratdir.

Bank o'z faoliyatida omonatning bir qator turlarini amaliyotga tadbiq etgan, lekin aholi omonatlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar talab darajasiga bormay qolmoqda, chunki aholi jamg'armalarining ulushi o'rtacha hisobda 6-7 foizdan oshmay kelmoqda. Bank ko'proq sertifikatlar bilan ishlarni amalga oshirishni ko'paytirishi kerak, chunki u bu yerda ortiqcha hujjatli ishlarni kamayishi hamda mijoz uchun qulayligi hamda bank uchun esa buning uchun xech kandy majburiy zaxiralarni to'lovi amalga oshirmasligi va uning hisobiga kredit potentsialni oshishiga olib keladi.

Fikrimizcha, bank o'zining depozit faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi:

- depozit, kredit va boshka operatsiyalarini bankning barqarorligini ta'minlashi bo'yicha bog'likligini yanada kuchaytirishi;
- risklarni kamaytirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilinish lozim;
- depozit portfelni turkumlash (mijozlar bo'yicha);
- mijozlarni turlari bo'yicha individual yo'nalish olib borish;
- xizmatlarning raqobatbardosh bo'lishi.

¹⁰ www.lex.uz

1.2. Bank resurslari va ularning tarkibi

Iqtisodiy rivojlanishning hozirigi sharoitida tijorat banklari resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beradi. Shu sabab tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular¹¹:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;
- aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;
- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.


Tijorat banklari, boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim. Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo'yicha guruhlariga ajratish mumkin. Bu bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar hamda jalb qilingan va qarz mablag'laridir.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bank resurslarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Bular, banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardir.

Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'lik bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi.

Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir kiladi. Bank resurlarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil kiladi. Bank boshqa kapitalarni jalb qilish uchun bank o'z kapitalining yetarli darajasi miqdorini ko'rsatish lozim.

¹¹ Sh.Abdullaeva. Bank ishi. –T.:Moliya, 2016. -579 b.



2-rasm. Tijorat banklari resurslarining shakllanish jihatdan tarkibiy tasnifi¹²

Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi – bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi.

¹² Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bankka sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati to'lovlar amalga oshiriladi, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Alohida tijorat banklari uchun bank depozitlari tarkibiy tuzilishi turli xillik bilan farqlanadi.

Tijorat banklarining resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. Shu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining mavjudligi va kredit qaytarilmasligi okibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;
- aholi qo'lidagi omonatlarining o'sishi;
- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir

Quyidagi jadvalda "Mikrokreditbank" aktsiyadorlik tijorat bankining Toshkent shahar bosh boshqarmasi bank depozitlari turlari keltirilgan.

1-jadval

“Mikrokreditbank” aktsiyadorlik tijorat bankining Toshkent shahar bosh boshqarmasida bank depozit turlari, 01.01.2017 yil holatiga¹³

Depozit turlari	Mln. so‘m	foiz
1. Talab qilib olinguncha depozitlar, jami	105 022	78,9
Shu jumladan:		
a) hukumat	16 481	12,4
b) jismoniy shaxslar	5 352	4,0
v) davlat korxonolari	22 025	16,5
g) qo‘shma korxonalar	111	0,1
d) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	54 692	41,1
e) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	6 361	4,8
2. Jamg‘arma depozitlari, jami	10957	8,2
Shu jumladan:		
a) hukumat	0	0
b) jismoniy shaxslar	10 957	8,2
v) davlat korxonolari	0	0
g) qo‘shma korxonalar	0	0
d) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	0	0
e) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	0	0
3. Muddatli depozitlar, jami	17 159	12,9
Shu jumladan:		
a) hukumat	0	0
b) jismoniy shaxslar	11 659	8,8
v) davlat korxonolari	5 500	4,1
g) qo‘shma korxonalar	0	0
d) xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar	0	0
e) boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	0	0
Jami depozitlar	133 138	100

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banki tomonidan jalb qilingan depozitlar ichida asosiy o‘rinni talab qilib olingungacha bo‘lgan depozitlar tashkil qilib, ular salmog‘iga 78,9 foizi depozitlar to‘g‘ri keladi. Muddatli depozitlar bankning barqaror kredit imkoniyatini asosi bo‘lsada, ularning hajmi barcha depozitlarning 12,9 foizini tashkil qiladi. Talab qilib olingunga qadar bo‘lgan depozitlar tarkibida asosiy o‘rinni xususiy korxonalar, korporatsiya va jamoalar, davlat korxonolari, hukumat mablag‘lari tashkil qilsa, muddatli depozitlar ichida asosiy o‘rinni jismoniy shaxslar mablag‘lari egallaydi. Tahlil qilinayotgan bankda aholi jamg‘armalari salmog‘i past bo‘lib, u jami depozitlarning 8,2 foizini tashkil qiladi.

¹³ Bank ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Banklarda mavjud boʻlgan mablagʻlardan foydalanish imkoniyatiga qarab bank resurslari oʻz resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga boʻlinadi. Bu holda banklar resurslariga bank kapitalidan tashqari maʼlum vaqt davomida bank ixtiyorida boʻlgan jalb kilingan depozitlarni, boshqa banklarning depozitidan va vakillik hisobraqamidan qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring buyicha qoldiqlarni va boshqa depozitlar va qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Shunday qilib, bankning oʻz mablagʻlari va qarzga olingan yoki sotib olingan mablagʻlari yigʻindisi tijorat banklarning resurs bazasini tashkil kiladi.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga oʻz kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisobvaraqlaridan qoldiqlari;
- bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar;
- olingan banklararo kreditlar;
- bank vakil tomonidan ochilgan «loro» depozit va valyuta hisob varaqasidagi mablagʻlar va boshqa manbalar.

Mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilgan chora-tadbirlar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 16.06.2017 yildagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qoʻshimcha chora- tadbirlar toʻgʻrisida” PQ-3066- sonli Qarori hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning ijrosiga qaratildi. Bunda bank tizimidagi islohotlar quyidagi yoʻnalishlarda olib borildi¹⁴:

- tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, aholi va xoʻjalik subʻektlarining boʻsh pul mablagʻlarini bank aylanmasiga keng koʻlamda jalb etish asosida ularning resurs bazasini mustahkamlash;
- ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashdagi banklarning ishtirokini yanada kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish

¹⁴ www.lex.uz

hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash va pirovardida yangi ish o‘rinlari yaratish ko‘lamlarini oshirish jarayonlarida faol ishtirok etish;

– bank tizimiga xorijiy sarmoyalarni jalb etish va shu orqali zamonaviy ilg‘or korporativ boshqaruv amaliyotlarini keng tatbiq etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida tijorat banklari ustav kapitalidagi 15 foiz ulushini xorijiy investorlarga sotish;

– tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini xalqaro andoza hamda me‘yorlar, shu jumladan, bank nazorati bo‘yicha Bazil qo‘mitasining yangi tavsiyalari asosida yanada takomillashtirish;

– iqtisodiyotda to‘lov tizimini, xususan, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish va bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratish;

– ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini yanada kengaytirish va sifatini yaxshilash, xususan, bank infratuzilmasini, ayniqsa, qishloq joylarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llagan holda masofadan turib xizmat ko‘rsatish ko‘lamini yanada kengaytirish;

– tijorat banklari va bank-moliya sohasi faoliyatini baholash tizimini xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan me‘yorlar, mezonlar hamda andozalarni joriy etish hisobiga yanada takomillashtirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi va to‘liq ijro etildi.

Mamlakatimizda 2017 yil mobaynida mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, omonatlarning yangi va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etishga alohida e‘tibor qaratildi. Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondirish muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda esa moliyaviy mablag‘larning muhim manbasi sifatida bank aktivlari muhim o‘rin tutadi.

Yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tijorat banklarining depozitlari kredit operatsiyalarining asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini tijorat banklarining depozit hisobraqamlariga jalb etish ularning depozit bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, tijorat banklari depozitlari hajmini oshirish bevosita ularning bahosiga bog'liq.

Tijorat banki tomonidan muddatli va jamg'arma depozitlariga nisbatan belgilangan foiz stavkalari mijozga ma'qul kelgandagina ular pul mablag'larini bankka qo'yadi. Ammo tijorat banki depozitlarga mijozlar manfaatiga mos keladigan foiz stavkalarini belgilash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun sof foizli spread koeffitsientining me'yoriy darajasini ta'minlagan holda faoliyat yuritishi lozim. Aks holda, tijorat banki depozitlarning foiz stavkalarini oshirish uchun moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Tijorat banklari depozit bazasining yetarliligini baholashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlardan biri, fikrimizcha, o'zida ham transaksion depozit hisobraqamini, ham muddatli depozit hisobraqamini namoyon etayotgan yangi hisobraqamlarining paydo bo'layotganligi hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaydi.

Olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan arzon va uzoq muddatli resurs manbai hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektori sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish va shu orqali mamlakatda ishlab chiqarish hamda investitsion faollikni rag'batlantirish bank tizimi oldidagi muhim vazifalardan biri

bo‘lib qoladi. Bu o‘z navbatida, banklarning uzoq muddatli depozitlari va qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq bo‘lgan emissiya operatsiyalari hajmini oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

2-jadval

Tijorat banklari aktivlarining tarkibi ¹⁵

Bank aktivlari nomi	01.01.2016 y.		01.01.2017 y.	
	summasi, mlrd. so‘m	ulushi, foizda	summasi, mlrd. so‘m	ulushi, foizda
Kredit qo‘yilmalari, netto	52 045	61,9	108 467	65,1
Markaziy bankdagi mablag‘lar	11 958	14,2	14 909	8,9
Boshqa banklardagi mablag‘lar	10 868	12,9	25 060	15,0
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar	2 621	3,1	4 115	2,5
Asosiy vositalar	1 794	2,1	2 335	1,4
Naqd pul mablag‘lari	1 336	1,6	4 841	2,9
Boshqa aktivlar	3 453	4,1	6 905	4,1
Jami	84 075	100,0	166 632	100,0

Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2018 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, 2016 yildagiga nisbatan 23,3 foizga oshib qariyb 166,7 trln. so‘mni tashkil etdi. Ayni vaqtda tijorat banklari faoliyatining pirovard maqsadi olinayotgan foydani maksimallashtirishdan iborat bo‘lib, ushbu maqsadga erishish bank aktivlari daromadlilikini oshirishning sifat jihatiga e’tibor qaratish lozim. Bunga erishish uchun esa, har bir tijorat banki o‘zining moliyaviy resurslarini to‘g‘ri boshqara olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash va uni shakllantirish bilan bog‘liq xarajatlarning qisqarishi, mos ravishda kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi. 2017 yilning dekabr oyiga kelib, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan jami muddatli va jamg‘arma depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi o‘rtacha yillik ko‘rsatkichdan (12 foiz) pastroq

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking 2017 yil hisoboti ma’lumotlari

bo‘lib, 10,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, jami depozitlar bo‘yicha foiz stavkasi 4,9 foizni tashkil etdi (o‘rtacha yillik 5,2 foiz)¹⁶.

Banklarning umumiy kapitali va depozit bazasining yanada mustahkamlanishi ularning iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsion faollikni rag‘batlantirishni ichki manbalar hisobiga amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirib, bank tizimi aktivlarining sifat hamda miqdor jihatdan oshishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlar tijorat banklarining depozit bazasini shakllantirish borasidagi tajribalaridan respublikamiz bank amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha shakllantirish mumkin:

1. Taraqqiy etgan mamlakatlar banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni sotish natijasida olingan pul mablag‘lari ular resurslarining umumiy hajmida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi va mazkur resurslar asosan banklarning uzoq muddatli operatsiyalarini moliyalashtirishda qo‘llaniladi.

2. Taraqqiy etgan mamlakatlar tijorat banklarining resurslari hajmida banklararo kreditlar salmog‘ining past ekanligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- banklararo kreditlar bahosi yuqori bo‘lgan resurs hisoblanadi;
- depozit bazasi yetarli bo‘lgan tijorat banklari banklararo kreditlardan resurs sifatida foydalanishga ehtiyoj sezmaydi.

Umuman olganda, pul-kredit sohasida amalga oshirilgan ushbu tadbirlar pul massasining prognoz ko‘rsatkichlaridan past bo‘lishini ta‘minlash va inflyatsiya darajasiga monetar omillar ta‘sirining oldini olish imkonini beradi.

1.3. O‘zbekiston Respublikasida depozit operatsiyalarining huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari resruslarni jalb qilishda bir qator me‘yoriy hujjatlarga asoslanadi.

Banklarning depozit operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 26 avgustda 2711-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston

¹⁶ 2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga mo‘ljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz

Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" asosida yuritiladi¹⁷. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-son "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq banklar tomonidan milliy va chet el valyutasida depozitlarni jalb qilish, qaytarish, foizlar hisoblash va to'lash bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida respublika bank tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida banklar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida", "Bank siri to'g'risida", "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" va "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlari qabul qilinib, hayotga joriy etildi. Natijada, bank operatsiyalarini amalga oshirish va hisobotlar tuzish borasida tub texnologik va huquqiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tabiiyki, mazkur o'zgarishlar depozit operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida respublika bank tizimiga zamonaviy yangi texnologiyalar joriy etila boshlandi. Xususan, tijorat banklari tarkibiy tuzilishida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, ko'pgina yirik tijorat banklarining filiallari tashqarisida tashkil etilayotgan shoxobchalar, masalan minibanklar hamda omonatlar operatsiyalarini bajaruvchi turg'un va sayyor operatsion kassalar faoliyat yurita boshlashdi. Yuqoridagi omillar, banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning omonat (depozit)lari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarining asosiy tamoyillari hamda unda qo'llaniladigan

¹⁷ www.lex.uz

hujjatlar va ularni rasmiylashtirish tartibi, omonat operatsiyalarini shaxsiy hisobvaraqa varaqchalarida aks ettirish, omonat kassalarda ish kunini yakunlash, kunlik hisobotlar tuzish va ularni soʻnggi nazoratdan oʻtkazish kabi masalalarni toʻliq yoritish, bundan tashqari bank tizimida omonat operatsiyalari boʻyicha maxsus boʻlinma tashkil qilish boʻyicha qoidalar oʻrnatish hamda depozit operatsiyalari bilan bogʻliq boshqa barcha masalalarni tartibga soluvchi meʼyoriy hujjat yaratish vazifasini vujudga keltirdi.

Shu bilan bir qatorda, amaldagi qonun hujjatlariga asosan jismoniy shaxslar oʻzlarining banklardagi omonatlarini tasarruf etish qoidalari, bank qabul qilib olgan omonatlarning qaytarilishini taʼminlash vositalari, omonatchi tomonidan qoʻyiladigan omonatning eng kam va eng koʻp miqdori va bank tomonidan omonat operatsiyalarini bajarganlik uchun haq olish qoidalari belgilandi.

Banklar omonatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan talablarga amal qilgan holda sir saqlanishini taʼminlashlari lozim. Yoʻriqnomaga asosan bank omonatlari “Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar”, “Jamgʻarma omonatlar”, “Muddatli omonatlar” va “Omonat sertifikatlari” turlarga boʻlinishi va har bir omonat turiga taʼrif berildi va ularning oʻziga xos belgilariga aniqlik kiritildi. Bundan tashqari, banklar yuqorida qayd etilgan omonat turlaridan tashqari qonun hujjatlariga zid boʻlmagan, boshqa omonatlarni qabul qilishlariga ruxsat berildi¹⁸.

Yoʻriqnomaning “Jismoniy shaxslarning omonatlari boʻyicha operatsiyalarni amalga oshirishda yuritiladigan hujjatlar” boʻlimi alohida eʼtiborga molikdir. Zero, aynan shu hujjatda birinchi marta banklar tomonidan jismoniy shaxslarning omonat operatsiyalarini bajarishda qoʻllanilishi lozim boʻlgan hujjatlar roʻyxati va ularning ilovalarda shakli berildi. Shuningdek, jismoniy shaxslar omonatlari boʻyicha shaxsiy hisobvaraqlar ochish, shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari yuritish va yopish boʻyicha ham alohida boʻlim kiritildi. Albatta, yuqorida qayd etilgan hujjatlarning aksariyat qismi bank amaliyotida foydalanib kelinmoqda. Lekin, ular

¹⁸ “Oʻzbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaga” № 2711, 2015 yil 26 avgust.

asosan eski sovet tuzumi davridagi “jamg‘arma kassalar” tomonidan qo‘llanilgan shakllarini saqlab qolgan edi. Shu sababli, ular bugungi kun talablaridan kelib chiqib saralandi va shakllari soddalashtirildi. Shuningdek, omonatchi bankka mablag‘ qo‘yganligini tasdiqlovchi yangi hujjat -“Tasdiqnoma”joriy qilindi.

Yo‘riqnoma bundan tashqari, jismoniy shaxslardan mablag‘larni omonatga qabul qilish, jismoniy shaxslarga omonatni berish, omonatchi jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlari bo‘yicha omonatlarni naqd pulsiz shaklda kirim va chiqim qilish operatsiyalari, omonat kassalarida amaliyot kunini yakunlash va kunlik hisobot tuzish va omonat kassalarda kunlik amalga oshirilgan operatsiyalarning so‘nggi nazoratdan o‘tkazishni batafsil yorituvchi bo‘limlar bilan to‘ldirildi.

Omonatchi qo‘lida bank tomondan omonatni olganligini va omonat bo‘yicha bajarilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi asosiy hujjat bu omonat daftarchasidir. Shuning uchun, ushbu normativ hujjatda yangi omonat daftarchalarini berish, omonat operatsiyalarini rasmiylashtirish uchun berilgan omonat daftarchalarini sarflash ustidan nazorat o‘rnatish bo‘yicha alohida bo‘limlar kiritildi. Yo‘riqnomaning oxirgi “Yakuniy qoidalar” bo‘limida omonat operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha javobgarlik normalari o‘rnatildi.

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma tijorat bank xodimlariga omonat operatsiyalarini to‘g‘ri hamda aniq bajarishlarida qo‘llanma vazifasini bajaradi va barcha tijorat banklari ushbu hujjat talablariga og‘ishmay amal qilishlari talab etiladi. Tijorat banklari mazkur Yo‘riqnoma qoidalariga rioya qilgan holda o‘z ichki tartiblarini ishlab chiqishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 3 iyulda 2692-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to‘g‘risidagi nizom” qabul qilindi¹⁹. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida"gi, "Banklar va bank faoliyati

¹⁹ www.lex.uz

to'g'risida"gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tijorat banklarining (bundan buyon matnda banklar deb yuritiladi) jalb qilinadigan depozitlari (omonatlari) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish qoidalarini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan milliy valyutada jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar)ga tatbiq qilinadi. O'zbekiston Respublikasida banklar bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda va bank depozitlari (omonatlari) bo'yicha foiz stavkalarini ushbu Nizom talablari asosida belgilashda mustaqildirlar. Banklar ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib, depozit va foiz siyosatlariga tegishli o'zgartirishlarni kiritishlari lozim. Ushbu Nizom talablari banklar tomonidan avval jalb qilingan depozit (omonat) shartnomalari bo'yicha belgilangan foiz stavkalarini o'zgartirish uchun asos bo'lmaydi²⁰.

3-jadval

Bank depozitlarga foiz hisoblash metodikasi²¹

Depozit (omonat) turlari	Depozit summasi	Foiz stavkasi
Jami depozitlar, shu jumladan:	V jami	PAV
I. Jismoniy shaxslarning depozitlari:	Vjis. jami	P jis. o'rt. tortilgan
talab qilib olguncha omonatlar va bank plastik kartadagi mablag'lar	V1	P1
jamg'arma omonatlari	V2	P2
muddatli omonatlar	V3	P3
II. Yuridik shaxslarning depozitlari:	V yur. jami	P yur. o'rt. tortilgan
jamg'arma depozitlari	V4	P4
muddatli depozitlar	V5	P5

$$PAV = \frac{(V1 * P1 + V2 * P2 + V3 * P3 + V4 * P4 + V5 * P5)}{(V1 + V2 + V3 + V4 + V5)}$$

²⁰ "Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to'g'risidagi nizom". № 2692, 2015 yil 3 iyul.

²¹ "Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to'g'risidagi nizom". № 2692, 2015 yil 3 iyul.

Bu yerda PAV - o'rtacha tortilgan foiz stavkasi; V1, V2, ...Vn - n ta shartnoma bitimi bo'yicha jalb qilingan depozitlar (omonatlar) summasi; P1, P2, ... Pn - n ta shartnoma bitimida o'rnatilgan yillik foiz stavkalari.

Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jismoniy shaxslardan (talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va bank plastik kartadagi mablag'lar) hamda yuridik shaxslardan (jamg'arma va muddatli) jalb qilingan depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi hisoblab chiqiladi. O'rtacha tortilgan foiz stavkasi jalb qilingan har bir depozit (omonat) turi bo'yicha foiz stavkasini uning summasiga ko'paytirib, jami jalb qilingan depozitlar (omonatlar) miqdoriga bo'lish orqali quyidagi metodika yordamida hisoblanadi.

Bank filiallarida mijozlar bilan bajariladigan omonat operatsiyalarining qonun hujjatlariga va bank ichki siyosatiga muvofiqligini nazorat qilish uchun omonat bo'linmasi tashkil etilishi shart. Omonat bo'linmasi, Front-ofis va Bek-ofis tarkibiy tuzilma sifatida faoliyat ko'rsatayotgan banklarda "Mijozlarga chakana bank xizmatlari ko'rsatuvchi bo'lim", boshqa hollarda bankda omonat operatsiyalarini nazorat qilish bo'yicha alohida bo'linma (boshqarma, bo'lim, sho'ba) sifatida tashkil etilishi mumkin.

Bank omonatchining talabiga ko'ra omonatning qaytarilishi kafolatlanganligi to'g'risida axborot berishi shart. Bank omonatning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki uning shartlarini yomonlashtirgan taqdirda, omonatchi bankdan omonat summasini darhol qaytarib berishni, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga muvofiq unga foizlar to'lashni hamda o'ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Bank tomonidan omonatchilar yoki ularning qonuniy vakillarining yozma topshirig'iga binoan omonat hisobvarag'ida turgan pul mablag'lariga doir bank operatsiyalari bo'yicha amalga oshirilgan xizmatlari uchun vositachilik haqi undirilishi mumkin²².

Banklar omonatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning qonun hujjatlarida belgilangan talablarga amal qilgan holda sir saqlanishini ta'minlashlari lozim.

²² www.lex.uz

Omonatchi omonat qoldig'i, kirim-chiqim operatsiyalari, omonat muddatining tugash vaqti va omonat bo'yicha boshqa zarur ma'lumotlarni "SMS-banking" dasturidan foydalangan holda mobil aloqa telefoni yoki omonatchiga berilgan alohida identifikatsiya raqami, login va parol yordamida o'rnatilgan infokiosklar yoki tadbirkorlar xonasidagi kompyuterga o'rnatilgan maxsus dastur yoxud bankning Internet tarmog'idagi veb-sayti orqali ochilgan shaxsiy kabinetlariga kirib olishi mumkin.

Banklar aholi omonatlarining mavjudligini, ularning omonat daftarchalari (sertifikatlar)ga muvofiqligini har chorakda kamida bir marta tekshirishda O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya etgan holda "SMS-banking" dasturidan foydalanishlari mumkin.

Jamg'arma omonatlar bo'yicha bank bilan omonatchi o'rtasida bank omonati shartnomasi tuzilishi va omonatchi shartnoma tuzganidan so'ng, bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan dastlabki omonat summasi qo'yilishi shart. Jamg'arma omonatlar bo'yicha bank omonati shartnomasiga muvofiq qo'shimcha mablag'lar kiritilishi mumkin. Qo'shimcha mablag'lar kiritish tartibi bank omonati shartnomasida aniq belgilanishi lozim.

Bank tomonidan omonatlar bo'yicha foizlar hisoblash "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 1306, 2004 yil 30 yanvar) asosida amalga oshiriladi²³. Omonatlarga to'lanadigan foiz stavkalari darajasi banklar tomonidan qonun hujjatlari talablari doirasida belgilanadi. Banklarda jismoniy shaxslar omonatlarining hisobini yurituvchi shaxsiy hisobvaraqlarni ochish va yopish O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi yo'riqnoma (ro'yxat raqami 1948, 2009 yil 27 aprel) asosida amalga oshiriladi²⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2009 yilda "Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni

²³ www.lex.uz

²⁴ www.lex.uz

yanada ragʻbatlantirish qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-1090 Qarori qabul qilindi²⁵.

Unga koʻra, tijorat banklari depozitlariga aholi va xoʻjalik subʻektlari boʻsh pul mablagʻlarini jalb etishni yanada ragʻbatlantirish, pul mablagʻlarini bank aylanmasiga yoʻnaltirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligining tijorat banklari bilan birgalikda ishlab chiqqan Tijorat banklari depozitlariga aholi va xoʻjalik subʻektlari boʻsh pul mablagʻlarini jalb etishni yanada ragʻbatlantirish qoʻshimcha chora-tadbirlari kompleksi ishlab chiqildi. Bunga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari mijozning birinchi talabiga binoan banklarning barcha filiallari tomonidan aholi omonatlari boʻyicha naqd pul mablagʻlari berilishini taʼminlash yuzasidan qatʼiy nazoratni oʻrnatishi zarur boʻladi. Aholiga ularning depozit hisob raqamlaridan naqd pul mablagʻlari berilishining belgilangan tartibi buzilgan holatlarda, tijorat banklari va ularning hududiy boʻlinmalari hamda filiallari rahbarlarini egallab turgan lavozimlaridan ozod etishgacha boʻlgan qatʼiy choralar koʻrilishi belgilandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 28 noyabr 2008 yilda PF-4057-sonli “Fuqarolarning Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini taʼminlashga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida Farmoni qabul qilindi²⁶.

Farmonga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining omonatlarini jahon moliyaviy krizisining ehtimol tutilgan salbiy oqibatlaridan himoyalashning ishonchli kafolatlarini taʼminlash, mamlakat bank tizimiga aholining ishonchini tobora mustahkamlash, aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilish uchun qoʻshimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari toʻgʻrisida"gi Oʻzbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq, jismoniy shaxslarning tijorat banklari depozit hisobvaraqlariga joylashtirilgan pul mablagʻlari davlat tomonidan himoyalangan va fuqarolarning

²⁵ www.lex.uz

²⁶ www.lex.uz

omonatlari bo'yicha haq to'lashning ishonchli kafolatlari qonunan ta'minlanadi. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq omonatlarning miqdorlaridan qat'i nazar, fuqarolarning tijorat banklari depozit hisobvaraqlaridagi omonatlari bo'yicha to'la hajmda haq to'lash kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 fevral 2008 yilda PF-3968-sonli "Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra aholining bank tizimiga ishonchini mustahkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muhim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida jismoniy shaxslardan depozit hisobvaraqlarga, jumladan, taqdim etuvchining depozitlariga naqd pul shaklida qo'yilgan yoki o'zlarining xorijiy banklardagi shaxsiy hisobvaraqlaridan o'tkazilgan milliy va xorijiy valyutadagi pul mablag'larini omonatlarning miqdorini cheklamagan va ularning kelib chiqish manbalarini tasdiqlaydigan hujjatlarni talab etmagan holda qabul qilishga majburdirlar.

1-bob bo'yicha xulosalar

1. Bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi.

2. Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi.

3. Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak.

4. Bank resurslari bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'z va jalb qilingan mablag'laridan tashkil topgan, shuningdek, bankning daromad olishiga asos bo'luvchi imkoniyatlar majmuidir.

5. Bank passivlari bank resurslarining tashkil qilish manbasi bo'lib, uning hajmi bir necha omillarga bog'liq.

6. Depozit hisobvaraqlari turlicha bo'lishi mumkin va ularning tasniflanishi asosida qo'yilmalar manbai, ularning maqsadli yo'naltirilganligi, daromadlilik darajasi va boshqa shu kabi mezonlar inobatga olinadi.

7. Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi.

8. Resurslar barqarorligi masalalarini ko'rayotganda omonatlarni kafolatlanishiga ham e'tibor qaratish lozim.

9. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

10. Alohida tijorat banklari uchun bank depozitlari tarkibiy tuzilishi turli xillik bilan farqlanadi.

11. Bankning o'z mablag'lari va qarzga olingan yoki sotib olingan mablag'lari yig'indisi tijorat banklarning resurs bazasini tashkil kiladi.

12. Taraqqiy etgan mamlakatlar banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida olingan pul mablag'lari ular resurslarining umumiy hajmida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi va mazkur resurslar asosan banklarning uzoq muddatli operatsiyalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi.

13. Taraqqiy etgan mamlakatlar tijorat banklarining resurslari hajmida banklararo kreditlar salmog'ining past ekanligi banklararo kreditlar bahosi yuqori bo'lgan resurs ekanligi va depozit bazasi yetarli bo'lgan tijorat banklari banklararo kreditlardan resurs sifatida foydalanishga ehtiyoj sezmaydi.

14. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari resruslarni jalb qilishda bir qator me'yoriy hujjatlarga asoslanadi.

2-BOB. RESPUBLIKA TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERASIYALARINING AMALGA OSHIRILISHINING TAHLILI

2.1. “Mikrokreditbank” aktsiyadorlik tijorat bankining iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlari

“Mikrokreditbank” aktsiyadorlik tijorat banki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 maydagi PF-3750 sonli Farmoni asosida tashkil etilgan. Bank o‘z faoliyatini 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq amalga oshiradi. “Mikrokreditbank” aktsiyadorlik tijorat banki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun 2009 yil 30 apreldagi 37-sonli litsenziyasiga ega. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro‘yxati ko‘rsatiladi²⁷.

Bank faoliyatini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 maydagi “Mikrokreditbank” aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3750-sonli hamda 2008 yil 10 noyabrdagi “Mikrokreditbank” aktsiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4051 sonli Farmonlari talablari asosida olib borildi.

Bugungi kunda bankning 86 ta filiali va 79 ta mini-banklari respublikamizning barcha mintaqalaridagi 365 mingdan ortiq aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlamoqda. Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrda “Aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3268-sonli Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 oktyabrda 857-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida, bankka Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 11 viloyatning 24 ta tumanlaridan jami 1 206 ta oilani tadbirkorlikka jalb qilish va ularni bandligini ta’minlash maqsadida imtiyozli mikrokreditlar ajratish vazifalari yuklatilgan.

2017 yil davomida bankning asosiy faoliyati O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy, oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga, yakka

²⁷ www.mikrokreditbank.uz

tartibdagi mehnat faoliyatini va kasanachilikni rivojlantirish yo‘li bilan aholi bandligini ta’minlashga, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga va uni innovatsion tarzda modernizatsiya qilishga qaratilgan Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ko‘maklashishga qaratildi.

Bank mamlkatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlardagi rolini oshirib boradi va mamlakat bank tizimidagi o‘rnini yanada ko‘tarish va mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bank ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish bilan birgalikda, universal bank sifatida tijorat maqsadlarini ham ko‘zlab, bank faoliyatining samaradorligini, aktivlarning rentabelligini, raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida mijozlarning turli segmentlarini qamrab olish va biznes yo‘nalishlarini rivojlantirish ishlarini kuchaytirdi.

Bank o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish, belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlash maqsadida korporativ boshqaruv, tashkiliy va nazorat tizimlari samaradorligini yanada oshirib bordi.


Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuv darajasini yana oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3066-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 30 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag‘lari to‘liq ustav kapitaliga yo‘naltirildi.

Natijada bankning umumiy kapitali o‘tgan yil davomida 263,1 mlrd. so‘mga, jumladan, ustav kapitali 342,6 mlrd. so‘mga oshirildi²⁸.

Bank ustav kapitalining 2017 yil davomida 342,6 mlrd. so‘mga oshirilishi bank filiallari tomonidan resurs mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondiribgina qolmasdan, boshqa banklardan jalb qilingan yuqori foizli qimmat resurslarni qaytarish imkonini ham yaratdi. Bank xarajatlarini tejash, bank filiallari samaradorligini oshirish maqsadida yil davomida 101,5 mlrd. so‘mlik banklararo depozitlar qaytarildi. Bu esa bankning umumiy depozitlari hajmining 35,4 mlrd. so‘mga kamayishiga sabab bo‘ldi.

²⁸ www.mikrokreditbank.uz

Quyidagi rasmda AT Mikrocreditbankning ustav kapitali dinamikasi ma'lumotlari keltirilgan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi AT Mikrocreditbankning ustav kapitali dinamikasi, mlrd.so'm²⁹

2017 yil davomida bankning asosiy faoliyati O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy, oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini va kasanachilikni rivojlantirish yo'li bilan aholi bandligini ta'minlashga, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga va uni innovatsion tarzda modernizatsiya qilishga qaratilgan Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ko'maklashishga qaratildi.

Bank mamlkatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlardagi rolini oshirib boradi va mamlakat bank tizimidagi o'rnini yanada ko'tarish va mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bank ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish bilan birgalikda, universal bank sifatida tijorat maqsadlarini ham ko'zlab, bank faoliyatining samaradorligini, aktivlarning rentabelligini, raqobatbardoshligini oshirish yo'lida mijozlarning turli segmentlarini qamrab olish va biznes yo'nalishlarini rivojlantirish ishlarini kuchaytirdi.

²⁹ Bank ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2017 yil mobaynida AT Mikrokreditbankining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishi moliya-bank sektorini rivojlantirish indikatorlarini baholash me'zonlariga ko'ra "yuqori" darajalarni tashkil etdi.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi AT Mikrokreditbankining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, (mln so'm) ³⁰


№	Ko'rsatkichlar nomi	2016	2017
1	Jami kapital	285 902	557 166
2	Ustav kapitali	250 166	592 752
3	Bank aktivlari, jami	1 420 932	1 839 341
4	Kredit portfeli, jami	1 084 384	1 390 928
5	Iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar	1 101 328	1 390 670
6	Chet el valyutasida ajratilgan kreditlar	6 029	31 578
7	Ipoteka kreditlari	26 717	59 564
8	Iste'mol kreditlari	107 552	194 772
9	Ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar	141 209	308 705
10	Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar portfeli	11 316	11 246
11	Bank foydasi	718	2 704
12	Bank mijozlari, (soni, birlikda)	410 855	341 607
13	Filiallar (soni, birlikda)	85	86
14	Minibanklar (soni, birlikda)	75	70

Natijada, Ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik modernizatsiya qilish maqsadida ajratilgan investitsion kreditlar miqdori 2016 yilga nisbatan 27 foizga yoki 118,8 mln. so'mga oshgan holda 566,7 mlrd. so'mga yetdi. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar 665,2 mlrd. so'mni, shundan, ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar 561,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

AT Mikrokreditbankining 2017 yildagi kredit siyosatiga muvofiq, berilgan kreditlar iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish, ishlab turgan korxonalarni modernizasilash va yangi yuqori samarali ishlab chiqarishlarni kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyo resurslarini qayta ishlash asosida

³⁰ www.mikrokreditbank.uz

import o'rnini bosuvchi iste'mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalarni barpo etish va rivojlantirishga yo'naltirildi.



4-rasm. O'zbekiston Respublikasi AT Mikrokreditbankining 2017-2018 yillar holatiga bank aktivlari va kredit portfeli dinamikasi, mln so'm³¹

Bank aktivlari yil davomida 315,2mlrd. so'mga yoki 22 foizga oshgan holda 1 trln. 742,9 mlrd. so'mni, shundan kredit qo'yilmasi 231,2 mlrd. so'mga yoki 21,9 foizga oshib 1 286,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Bankning kredit bo'limi kreditlash operatsiyalarini amalga oshiradi. Kreditlar ajratish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda amalga oshiriladi. Kichik guruh uch kun muddatda banklarning maqsadli mablag'lardan foydalanish yo'nalishlari to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi va ularni tasdiqlash uchun Ishchi guruhga kiritadi.

Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrda "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3268-sonli Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 oktyabrda 857-sonli qarorori ijrosini ta'minlash maqsadida, bankka Qoraqalpog'iston Respublikasi va 11 viloyatning 24 ta tumanlaridan jami 1 206 ta oilani tadbirkorlikka jalb qilish va ularni bandligini ta'minlash maqsadida imtiyozli mikrokreditlar ajratish vazifalari yuklatilgan.

³¹ www.mikrokreditbank.uz

Ushbu 1206 ta oilaning 1067 tasi kredit olish istagi borligi aniqlanib, ularning barchasiga 5 669,9 mln. so‘m miqdorida kreditlar ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-sonli Farmoniga muvofiq, Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligining 50 mlrd. so‘mlik, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 20 mln. AQSH dollari qiymatidagi imtiyozli mablag‘larini bankka jalb qilish hamda mazkur mablag‘lar evaziga hunarmandchilikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash belgilangan.

Savdo sanoat palatasi tomonidan shakllantirilgan hamda bankka biriktirilgan hunarmandlarning loyihalari bank tomonidan o‘z vaqtida moliyalashtirish ishlari boshlangan bo‘lib, ularning o‘z vaqtida ishga tushishi bo‘yicha barcha zaruriy choralar ko‘rilmog‘da. Jumladan, bankka biriktirilgan 2467 ta hunarmandlarning 118 344 mln. so‘mlik loyihalariga 70 740 mln. so‘m miqdorida kreditlar ajratilishi belgilangan. Qisqa fursat ichida ushbu hunarmandlarning 753 tasiga 20 950 mln. so‘mlik kreditlar ajratildi.

2017 yilning – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish” maqsadida fuqarolarning tadbirkorlik qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish, ularning bank xizmatlari va kredit mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bank tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishni, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g‘oyat muhim vositasi sifatida Respublika hududlari bo‘yicha ko‘rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar ko‘lamini hamda hajmi oshirildi;

- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni yanada faollashtirish maqsadida bank xizmatlari keng targ‘ib qilindi;

- ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarga katta e'tibor qaratgan holda mikromoliyaviy sarmoyalarni yo'naltirish va aholining ish bilan bandligini ta'minlashga hissa qo'shildi;

- imtiyozli mikromoliyaviy resurslar samaradorligini ta'minlash maqsadida, bank mikromoliyaviy va chakana xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarida yengilliklar yaratib berish borasidagi ishlarni doimiy ravishda takomillashtirib borildi;

- bankning aktiv operatsiyalari o'sishini ta'minlovchi resurs salohiyatini oshirish, investitsion jozibadorlikni hamda foyda darajasini oshirishga harakat qilindi;

- bank faoliyati, ayniqsa kredit tavakkalchiligini kamaytirish, kredit portfelining yuqori sifat darajasini saqlash, amalga oshirilayotgan operatsiyalarda daromadlilik va likvidlikning maqbul nisbatini ta'minlashga erishildi.

Qishloq xo'jaligida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va saqlash quvvatlarini barpo etishga 868,0 mlrd. so'm va zamonaviy issiqxonalar tashkil qilishga 262,0 mlrd. so'm uzoq muddatli imtiyozli kredit mablag'lari ajratiladi. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan jahon tajribalarini o'rganish, sifatli eksportbop va import qilinayotgan mahsulotlar o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yangi innovatsion g'oyalarni amalga oshirish uchun investitsiyalar ajratilmoqda.

2018 yilning 1 apreldan xorijiy valyutaning oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish va xalqaro to'lov kartalaridan pul mablag'larini xorijiy va milliy valutadagi muddatli omonatlarga o'tkazish, kommunal va boshqa to'lovlarni to'lash, onlayn konversiyani ta'minlovchi jismoniy shaxslarning hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarish tizimi joriy etildi.

Bank mijozlariga yanada qulayliklar yaratish maqsadida, kelgusida bank filiallarida kredit ajratish tezkorligini ta'minlash maqsadida bo'lim va filiallar kredit qo'mitalari vakolatlari kengaytiriladi, bunda bo'lim va filiallar kredit kommitetlari tomonidan mustaqil ravishda ta'lim kreditlari, iste'mol kreditlari va mikrokreditlar qisqa muddatlarda ajratilishi ta'minlanadi.

Bank tizimida bank xizmatlari bo'yicha belgilangan tariflar qayta ko'rib chiqilib, kreditlar ajratishda hisoblanadigan komissiyalar va jarimalar miqdori chegaralab qo'yiladi. Joylarda bank plastik kartalari egalariga sifatli bank xizmatini taqdim qilish maqsadida, uzluksiz ishlaydigan bankomatlar dislokatsiyasi kengaytiriladi.

Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, modernizatsiyalash va texnik, texnologik jihatdan qayta jihozlash, investision loyihalarni moliyalashtirish maqsadida joriy yilning o'tgan choragi davomida 317 mlrd. so'm miqdorida investision kreditlar ajratildi³².

Bank faoliyatining asosiy yonalishlari O'zbekiston iqtisodiyotining real sektorini kreditlash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va yangi ish og'rinlarini yaratishga kog'maklashish maqsadida texnik va texnologik modernizatsiyalash bo'yicha loyihalarni moliyalashtirishdan iborat. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qog'llab-quvvatlash bank faoliyatida alohida o'rin tutadi. Bunda bank, mamlakat moliyaviy bozorini rivojlantirishdan tashqari, og'z omonatchilari, mijozlari va aksiyadorlari manfaatlarini ham yuqori qog'yadi.

Mikromoliyalashtirish, kichik biznes sub'ektlarini kreditlash, savdoni moliyalashtirish va institutsional taraqqiyotga texnik kog'mak berish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish yuzasidan xalqaro moliya institutlari (XMI) bilan 10 yildan ortiq vaqtdan buyon muvaffaqiyatli hamkorlik olib borilayotgani Bank ishonchliligi va barqarorligi kog'rsatkichidir. XMI bilan hamkorlik bank rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit mablag'lari zamonaviy holatining tahlili

Passivlar va aktivlar bo'yicha majburiyatlarni boshqarish bankning muxim vazifasi bo'lib hisoblanadi. Zahiralarni jalb qilish yoki ularni joylashtirish – operatsiyalarning har ikkalasi ham bank uchun muhim. Chunki bular o'zaro bog'liq, o'zaro shartlangan ikkita jarayondir. Ularni ratsional tashkil qilish yuqori

³² www.mikrokreditbank.uz

natijalarga erishish imkonini beradi. Odatda, bank resurslarini shakllantirish bilan bogʻliq boʻlgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv – passiv schetidagi pul mablagʻlarining salmogʻi oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol oʻynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur boʻlgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablagʻlarini bankga jalb qilish bilan bogʻliq operatsiyalar depozit operatsiyalari deyiladi. Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini tijorat banklari oʻzlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini taʼminlashga qaratilganidir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining obʻekt va subʻektini aniqlash lozim.

Jalb qilingan mablagʻlar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. Bular depozitlar, shuningdek, kontokorrent va korrespondent hisob varagʻidagi mablagʻlardir. Ularning asosiysi talab qilib olinadigan qoʻyilmalarga, muddatli hamda jamgʻarma qoʻyilmalarga boʻlinuvchi depozitlardir.

Talab qilib olinadigan qoʻyilmalar, shuningdek, joriy hisobvaragʻidan mablagʻlar omonatchilarning birinchi talablari bilan olinadi. Joriy hisob varagʻining egasi bankdan chek daftarchasini oladi. Bunda u pul olish bilan birga iqtisodiy munosabatlar vakillari boʻlgan korxonalar, tashkilot, muassasalar hisob-kitob operatsiyalarini olib borishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasida 2017 yil davomida tijorat banklari jami majburiyatlari 70,9 trln. soʻmga yoki 1,9 barobarga (2016 yilda 1,3 barobarga) oʻsib, 2018 yilning 1 yanvar holatiga 146 trln. soʻmni tashkil etdi. Bunda jami majburiyatlar oʻsishining 71 foizi yoki 50 trln. soʻmi milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi natijasida chet el valyutasida jalb

qilingan kreditlar va depozitlarning milliy valyutadagi qiymatining oshishi hisobiga ro‘y berdi³³.

Depozit operatsiyalarining obekti bo‘lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag‘lari (qo‘yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo‘lib, balans likvidliligi, mijozlarning moliyaviy ahvolidan barqarorligi hisoblanadi. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining depozit siyosatini amalga oshirish orqali ta‘minlanadi, xususan:

- depozit operatsiyalari bank daromadining oshishga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;

- bank balansining likvidliligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;

- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo‘yilmalarga e‘tibor qaratish lozim;

- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog‘liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralarini ko‘rish zarur va boshqalar³⁴.

Quyidagi jadvalda 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozit qoldiqlari ma‘lumotlari keltirilgan.

5-jadval
O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozit qoldiqlari,
mlrd.so‘m³⁵

Depozitlar	01.04.2017	01.07.2017	01.10.2017	01.01.2018
Milliy valyutadagi depozitlar	30 029	31 313	29 806	28 076
Xorijiy valyutadagi depozitlar	10 246	12 539	23 556	25 699
Jami	40 275	43 852	53 362	53 775

Ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, milliy valyutadagi depozitlar dinamikasida pasayish kuzatilmoqda, xorijiy valyutadagi depozitlar dinamikasida esa o‘shirishga erishilgan.

³³ 2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga mo‘ljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz

³⁴ TIF Milliy bankining depozit siyosatidan olindi

³⁵ www.stat.uz

Tijorat banklarining likvidligini tartibga solishda majburiy zaxiralar instrumentidan iqtisodiyot va pul-kredit sohasidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda moslashuvchanlik bilan foydalanib borildi. Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda shakllantirilgan majburiy zaxiralar bo'yicha xisobvarag'laridagi mablag'lar qoldig'i 2017 yil 1 noyabr holatiga yil boshiga nisbatan 32 foizga (3,9 trln. so'mdan 5,2 trln. so'mga) ko'paydi. Ushbu o'sish tijorat banklari depozit bazasining real oshishi hamda xorijiy valyutadagi depozitlarning milliy valyutadagi ekvivalentining oshishi bilan izohlanadi³⁶.

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo'lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo'yilgan mablag'larga daromad olish mijozlarning qo'yilma qo'yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O'zbekiston Respublikasi markaziy banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi.

Depozitlarining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvarag'ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri, va nihoyat mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog'liq. Muddatli qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkasi hajmini o'rnatishdagi muhim omil bo'lib, mablag'lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Tijorat banklarining kredit potentsiali - bu jalb qilingan mablag'larning kredit va bankning boshqa aktiv operatsiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy chegarasi hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larining tijorat banklari tomonidan jalb qilinishi ular iqtisodiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Banklar tomonidan jalb qilingan mablag'larning barchasi kredit uchun ishlatilmasligi mumkin.

Quyidagi jadvalda mamlakatimiz tijorat banklarida milliy valyutadagi bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari ma'lumotlari keltirilgan.

³⁶2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga mo'ljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida milliy valyutadagi bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalari, o‘rtacha tortilgan foiz stavkalarida³⁷

Qaytarish muddati va turi	2017 y.			
	mart	iyun	sentyabr	dekabr
Jismoniy shaxslarning jami depozitlari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari	8,1	8,3	9,2	10,7
<i>shu jumladan:</i>				
Muddatli depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari	17,9	18,1	17,7	17,3
- 30 kungacha	17,7	17,5	16,8	16,4
- 30 kundan 90 kungacha	18,2	18,4	17,4	17,3
- 90 kundan 180 kungacha	18,0	18,0	17,8	17,5
- 180 kundan 365 kungacha	18,5	18,5	18,8	17,8
- 1 yildan yuqori	14,5	16,7	18,5	18,2
Yuridik shaxslarning jami depozitlari bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari	6,0	3,0	9,4	7,5
<i>shu jumladan:</i>				
Muddatli depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari	6,5	5,8	10,8	12,3
- 30 kungacha	2,5	3,2	11,0	7,5
- 30 kundan 90 kungacha	6,2	6,8	10,8	11,6
- 90 kundan 180 kungacha	6,6	5,4	11,4	10,7
- 180 kundan 365 kungacha	6,9	5,8	12,0	12,9
- 1 yildan yuqori	6,4	6,0	9,8	12,6

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, talab qilinguncha bo‘lgan depozitlar bo‘yicha hisobvaraqlari egalari tomonidan joriy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi va ular qoldiqning nomuntazamligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bunday hisoblar guruhi daromadlik darajasi bilan ajralib turadi. Yuridik shaxslarga ochilgan talab qilinguncha hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qoldig‘i bo‘yicha foizlar umuman to‘lanmasligi mumkin. Bunday foyda, odatda, mijozlarni hisob kassa xizmatlari uchun to‘lov mablag‘larini talab qilinguncha hisobvaraqlarda mablag‘larni minimallashtirish va ortiqcha summalarni qo‘yilmalarning daromadliroq shakllariga joylashtirishga undaydi. Jismoniy

³⁷ www.stat.uz

shaxslar uchun ochilgan talab qilinguncha varaqlar bo'yicha foizlar deyarli majburiy tartibda o'rnatiladi, ammo u bo'yicha daromad hamisha muddatli qo'yimalarga qaraganda pastroq bo'ladi.

Quyidagi jadvalda mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozitlar qoldig'i ma'lumotlari keltirilgan.

7-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozit va depozit sertifikatlari qoldig'i, mlrd.so'm³⁸

Sana	Jami	muddat bo'yicha				
		Talab qilib olinguncha	1 kundan 30 kungacha	30 kundan 180 kungacha	180 kundan 365 kungacha	1 yildan yuqori
01.04.2017	38 404	19 626	2 690	6 436	5 285	4 366
01.04.2018	61 328	31 302	5 196	9 281	8 214	7 335

Bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Bank tizimidagi likvidlik darajasini boshqarish va shu orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda majburiy zaxira talablaridan ham keng foydalaniladi. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy hisob varaqlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Vaholanki, mijozlar, odatda, o'z mablag'larining hammasini birdaniga olishmaydi, shuning uchun, bankning naqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

Bundan tashqari, aksariyat bank operatsiyalari naqd pulsiz ko'rinishda amalga oshiriladi. Kassa zahiralari ko'rinishida bo'lmagan naqd pullar bank likvidligini oshiradi va u boshqa mijozlarga yoki bankka kredit sifatida yo'naltirilishi mumkin. Kassa zahiralardan tashqari tijorat banklari tomonidan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanishda boshqa cheklovlar bo'lib, u

³⁸ www.sbu.uz

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatiladigan majburiy zahiralar shaklida ifodalanadi.

8-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jami depozitlarida banklarning ulushi, 2018 yil 1 aprel holatiga, mlrd. so‘m³⁹

№	Bank nomi	Depozit	
		summa	ulushi, foizda
Jami		60 456	100%
1	O‘zmilliybank	11 608	19,2%
2	O‘zsanoatqurilishbanki	4 764	7,9%
3	Asaka bank	7 793	12,9%
4	Ipoteka bank	5 619	9,3%
5	Agrobank	1 911	3,2%
6	Qishloq qurilish bank	1 424	2,4%
7	Xalq banki	3 498	5,8%
8	Aloqa bank	2 140	3,5%
9	Hamkor bank	3 179	5,3%
10	O‘zKDB bank	4 287	7,1%
11	Kapital bank	2 980	4,9%
12	Orient Finans bank	1 968	3,3%
13	Ipak yo‘li bank	1 839	3,0%
14	Trast bank	2 029	3,4%

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari resurs bazasida TIF Milliy banki salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, uning depozitlari 11,6 trln.so‘mni tashkil etadi va Respublika bo‘yicha 19,2 foizli ulush bilan birinchi o‘rinni egallaydi. Undan

³⁹ Axbor reyting 2018 yil ma’lumotlari

keyin AT Asaka bank 12,9 foiz bilan ikkinchi, ATIB Ipoteka bank esa 9.3 foiz bilan keyigi o'rinni egallagan.

Tijorat banki yiqqan resurslarining qariyb 20 foizini majburiy zaxiralar fondiga o'tkazadigan bo'lsa, u 80 foiz resursini va yana uning likvidligini ta'minlash uchun rezervlarni tashkil qiladigan bo'lsa, u jalb qilgan resurslaridan 60-70 foizini o'zining aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun yo'naltirishi mumkin.

Pul agregatlarining dinamikasi va ularning maqsadli prognoz parametrlaridan kelib chiqqan holda 2017 yilda ham majburiy zaxira talablari muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 15 foiz, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan ushlab turilishini kuzatishimiz mumkin⁴⁰.

2018 yildan boshlab jismoniy shaxslar uchun bankka tashrif buyurmasdan mobil banking tizimi orqali depozit ochish imkoniyati paydo bo'ldi. Bunday innovatsiya «Hamkor bank» ATB tomonidan joriy etildi. Agar mijoz 1 mln. so'mdan ortiq mablag'ni 9 oyga depozitga qo'ysa, bank yillik 19% to'lashga tayyor. Onlayn-omonatdan foydalanish uchun shu bankning plastik kartasi saqlovchisi bo'lish kerak.

Banklar kesimida eng foydali takliflar 11- jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, eng manfaatli omonatlarni «Hamkor bank» ATB va «InFinbank» ATB taklif etmoqda, ular o'z mijozlariga yillik 19% to'lashga tayyor. 2017 yil may oyidagi vaziyat bilan solishtirsak, hozirda hech bir bank 20% va undan yuqori stavkada omonatlarni taklif etmayotir. Naqd omonatlar bo'yicha eng yuqori foiz stavkasi ham yillik 19%ni tashkil etadi. Uni bugungi kunda «Hamkor bank» ATB, «Qishloq qurilish bank» ATB va «InFinbank» ATB taklif etmoqda. 25 bankning 24 tasi mijozga milliy valyutada 5 va undan ortiq omonat turlarini tanlash imkonini bermoqda, ular shartlari bilan farq qiladi. Eng yuqori foiz

⁴⁰ 2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga mo'ljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz

stavkalarini o'z ichiga olgan takliflar mijoz yillik 16–19% daromad olishini nazarda tutadi.

9-jadval

O‘zbekiston Respublikasining ayrim tijorat banklarida depozitlarga taklif etilayotgan miqdorlar, 2018 yil aprel holatiga⁴¹

N	Bankning nomi	Naqd shakldagi eng foydali omonat	Plastik kartadan eng foydali omonat
1	«Agrobank» ATB	9 oyga yillik 17% , minimal omonat summasi – 5 mln, 12 oyga – 3 mln	9 oyga yillik 17% , minimal omonat – 5 mln, 12 oyga – 3 mln
2	«Asia Alliance Bank» ATB	12 oyga yillik 18% , minimal omonat summasi – 500 ming.	6 oyga yillik 16% , minimal omonat summasi – 500 ming, hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin
4	«Asaka» ATB	1 oydan 24 oygacha yillik 17%	1 dan 6 oygacha yillik 17%
5	«Davrbank» XATB	13 oyga yillik 16% , minimal summa – 50 ming.	13 oyga yillik 16% , omonatning minimal summasi – 50 ming.
7	«InFinbank» ATB	18 oyga yillik 19% . Dastlabki 9 oyda hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin, boshqari 500 mingdan ortiq summa qo'yilsa.	18 oyga yillik 19% . Dastlabki 9 oyda hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin, boshqari 500 mingdan ortiq summa qo'yilsa.
9	«Ipoteka-bank» ATIB	1, 3, 6 oyga yillik 17%	Talab qilib olingunga qadar yillik 0,1% , kapitalizatsiya ko'zda tutilgan
10	«Kapitalbank» ATB	12 oyga yillik 18 % , hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin	12 oyga yillik 18% , hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin
12	«Qishloq qurilish bank» ATB	12 va 24 oyga yillik 19% , minimal omonat summasi – 1 mln	3 va 12 oyga yillik 16% , omonat 1 mln dan 150 mln.gacha bo'lishi mumkin
13	TIF Milliy banki	12 oyga yillik 17% , hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin	12 oyga yillik 17% , hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin
16	«Savdogar» ATB	2, 3, 6 va 12 oyga yillik 18 %	2, 3, 6 va 12 oyga yillik 18 %
17	«Trastbank» XAB	3 oyga yillik 16% , minimal omonat – 1 mln	3 oyga yillik 16% , minimal omonat – 1 mln
18	«Turkiston» XATB	6 oyga yillik 18%	6 oyga yillik 18% , foizlarni naqd shaklda olish mumkin
19	«Turonbank» ATB	3 oyga yillik 16%	3 oyga yillik 16%
20	«O'zSQB» ATB	4 oyga yillik 18% , minimal omonat – 100 ming.	5 oyga yillik 17% , minimal omonat – 100 ming
23	«Xalk banki» AT	12 oyga yillik 16%	5 oyga yillik 14% , hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin
24	«Hamkorbank» ATB	12 oyga yillik 19% , minimal omonat – 1 mln	9 oyga yillik 19 % , minimal omonat – 1 mln, onlayn rejimida ochiladi
25	«Mikrokreditbank» ATB	12 va 24 oyga yillik 18% , hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin	6 va 12 oyga yillik 10% , hisobvaraqlar to'ldirilishi mumkin

⁴¹ www.finansist.uz

Mijoz muddatidan oldin omonatini yopishga qaror qilgan taqdirda ham bank foizlarni to‘lashga tayyor bo‘lgan takliflar paydo bo‘ldi.⁴²

Banklarning filiallari va bo‘limlaridagi takliflar farq qilishi mumkin. Masalan, “Xalk banki”ning ayrim filiallarida vaqtinchalik omonatlar qabul qilinmayotganini ma’lum qilishdi, buning boisi bo‘linmalar pensiyalar to‘lashni tashkil etish bilan band ekan. «Ipak yo‘li bank» AITB bosh ofisida omonat operatsiyalarining vaqtincha to‘xtatilganini ma’lum qilishdi, ammo bunda bankning filiallariga murojaat etib ko‘rishni taklif etishdi. Deyarli barcha banklar omonat qanday shaklda qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha shaklda foizlarni to‘lashadi. Foizlar ham oyma-oy, ham omonat muddati tugagandan keyin to‘lanishi mumkin. Ba’zi omonatlar bo‘yicha boshqa davriylik ko‘zda tutilishi ham mumkin, bu haqda mijozga shartnoma imzolanishidan oldin ma’lumot beriladi.

Shu bilan birga shartlarda aytilishicha, omonat ochilgan paytdan boshlab 6 oygacha yopilgan taqdirda bank yillik foiz hisobida foizlar hisoblaydi, omonat 6 oydan keyin yopilgan taqdirda omonat bo‘yicha foizlar yillik 19 foiz hisoblanadi. Aksariyat banklar mijozga sms-ma’lumotnoma xizmatini taqdim etmoqda, shu bois omonatchi hisoblangan foizlar yoki omonat muddati tugaganligi haqida o‘z vaqtida xabardor qilinmoqda⁴³.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bu real mavjud resurslar doirasida ish yuritishdir. Bu degani tijorat banklari nafaqat o‘z resurslari va kredit qo‘yilmalari miqdori mos kelishini ta’minlashi, balki o‘zining likvidligini ham ta’minlashi kerak. Agar bank mablag‘larini qisqa muddatga jalb etib uzoq muddatga kredit beradigan bo‘lsa, u holda bank likvidligi xavf ostida qoladi. Bank aktivlari tarkibida ko‘p miqdorda risk darajasi yuqori ssudalarning mavjudligi bank o‘z mablag‘larining salmog‘ini oshirishini talab etadi. Real jalb qilingan resurslar doirasida ishlash tamoyili – jalb qilingan depozitlarga bank qiziqishining o‘shishiga, davlat miqyosida bo‘sh qolgan kredit resurslari uchun sof raqobat rivojlanishiga olib keladi. Passivlar uchun keskin kurash banklarning o‘z resurslarini

⁴² www.finansist.uz

⁴³ www.finansist.uz

shakllantirishning samarali usullarini izlashni talab qiladi. Iqtisodiy mustaqillik bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larini mustaqil boshqarishni, mijoz va omonatchilarni erkin tanlashni, soliqlar to'lagandan keyin qolgan daromadga mustaqil egalik qilishni nazarda tutadi.

2.3. O'zbekiston Respublikasi AT Mikrocreditbankida jalb qilingan mablag'lar va ularning tahlili

“Mikrocreditbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan o'tgan 2017 yil davomida kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, hunarmandchilik, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashbo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

AT Mikrocreditbank tomonidan yil davomida mijozlarning talab qilib olinguncha depozitlari hajmining 88,9 mlrd. so'mga, muddatli depozitlar hajmining 87,9 mlrd. so'mga oshirildi. Natijada jami depozitlar hajmi 990,4 mlrd. so'mni, aholi omonatlari qoldig'i 225,2 mlrd. so'mni tashkil yetdi.



5-rasm. AT Mikrocreditbankida depozitlari tarkibi (mln.so'm)⁴⁴

AT Mikrocreditbank moliya bozorida depozitorlar (omonatchilar) va kreditorlar o'rtasida vositachilik funksiyasini amalga oshiradi. Bankda resurslarni

⁴⁴ Banklarning 2016 yil hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

boshqarish siyosati, birinchi navbatda o'z resurs bazasini mustahkamlash orqali o'z mijozlarining bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bankning investitsion faoliyatini moliyalashtirish va keyinchalik bo'sh resurs mablag'larini moliya bozorida joylashtirishga, bankning doimiy likvidligini ta'minlashga qaratilgan holda davom ettirib kelmoqda.

2017 yilda bankning jami aktivlari qoldig'ini 1 726 mlrd.so'mga, jumladan jami aktivda daromad keltiruvchi aktivlar ulushini 90 foizdan oshirishga erishildi va aktivlar o'sishini moliyalash maqsadida bank tomonidan chakana va korporativ moliya bozorlaridan resurslarni jalb qilish bo'yicha quyidagi vazifalar bajarildi:

- aholi omonatlari hajmini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda, yangi, jozibador omonat turlarini joriy etish, jismoniy shaxslar uchun milliy va halqaro plastik kartochkalar emissiyasini ko'paytirish, iste'mol hamda avtokreditlari ta'minoti sifatida aholining naqd puldagi depozit mablag'larini qabul qilish davom ettirildi;

- yuridik shaxslarning bankdagi depozitlari hajmini, jumladan muddatli depozitlar qoldig'ini 1,25 barobarga oshirildi;

- halqaro moliya institutlari hamda yetakchi xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari, investitsiya va grantlarini jalb etish borasidagi ishlarni yanada faollashtirildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, bank resurs bazasini mustahkamlash va aktivlarni moliyalashtirishning ichki manbalaridan ham samarali foydalanish maqsadida quyidagilar amalga oshirildi:

- muammoli aktivlarni keskin kamaytirish va aktivlar sifatini yuqori darajasini ta'minlash;

- yangi mijozlarni, ayniqsa korporativ mijozlarni jalb etish, bunda, talab qilib olinguncha depozit hisobraqamlarida uzoq muddatli yirik miqdorda mablag'lar qoldig'iga ega mijozlarga qo'shimcha qulayliklar va imtiyozlar joriy etish;

- bank biznesini – chakana biznes, kichik biznes va korporativ biznes yo'nalishlarini rivojlantirish orqali bank daromadlarini oshirish.

Ichki manbalar bank uchun foizsiz va arzon resurslar bo‘lib hisoblanadi. Bank tashqi resurslarni jalb etish bilan birgalikda, resurslar tarkibida foizsiz resurslar hajmini ham o‘shirishini ta’minlaydi.

AT Mikrokreditbank Bank yuqoridagi va barcha qonuniy yo‘llar bilan o‘zining resurs bazasini oshirib borib, kelgusida banklararo bozorda mablag‘ sotuvchi sifatida qatnashishni o‘zining strategik vazifasini amalga oshirdi. Bank kapitalini oshirish va resurlarini ko‘paytirish bankning barqarorligini ta’minlashga, daromad keltiruvchi aktivlarni o‘stirishga xizmat qiladi. Bank daromadlarini oshirishda bank uchun eng maqbul yo‘l arzon va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon shiddat bilan rivojlanib bormoqda, yangi texnika va innovatsion texnologiyalar yaratilmoqda. O‘z nabatida ushbu yangilikliklarni amaliyotga joriy etish va zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish hamda faoliyat xajmini yanada kengaytirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tabiiy ravishda bank kreditlariga ehtiyoj yuqori bo‘ladi va mazkur ehtiyojlarni eng oqilona ravishda qondirish imkoniyatiga ega moliya muassasini tanlaydi.

Quyidagi jadvalda AT Mikrokreditbankning depozitlari to‘g‘risidagi ma’lumot keltirilgan.

10-jadval

AT Mikrokreditbankning depozitlari dinamikasi, mln.so‘m⁴⁵.

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2016	2017
1	Depozitlar, jami	870419	990403
2	Aholi mablag‘lari, jami	256877	225183
3	Aholi muddatli omonatlari	41110	114382
4	Jamg‘arma depozitlar	68887	35216
5	Talab qilib olinguncha depozitlar	273705	258773

⁴⁵ www.mikrokreditbank.uz

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bankning depozitlari summasi 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 120 mlrd.so'mga ko'paygan va aksincha talab qilib olinadigan depozitlar miqdori 14.9 mlrd. so'mga pasaygan.

Shuni e'tiborga olgan holda, bank yangi mijozlarni jalb qilishda, yangi tarmoqlarga kirib borishda va ularni egallashda kreditlash jarayonini asosiy omil sifatida ko'radi. Bank, iqtisodiyotning real sektori va barcha mijozlari uchun qulay kreditlash maydonchasi sifatida o'rin egallashi lozim. AT Mikrocreditbank kreditlashni kengaytirish uchun barqaror, uzoq muddatli resurs manbalarini shakllantirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirib kelmoqda:

- bank kapitalini doimiy ravishda oshirib borish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning milliy va xorijiy valyutadagi depozitlarini keng jalb qilish;
- kreditlash uchun tashqi kredit resurslaridan unumli foydalanish;
- aktivlar va majburiyatlarni muddati va foizi mutanosibligini ta'minlagan holda oqilona joylashtirilishini ta'minlash;
- ichki resurs bozoridan mablag'larni jalb qilish;
- jalb qilingan milliy va xorijiy valyutadagi depozitlarni muddati hamda foizi jihatdan tahlil qilib borish, zarur hollarda qayta joylashtirish.

Bank kapitalini ko'paytirish olingan foydadan ajratmalar va qo'shimcha aksiyalarni muamolaga chiqarish hisobidan amalga oshiriladi. Bank aksiyalarini joylashtirish uchun va investorlarni jalb qilish maqsadida bankning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, jumladan, korporativ boshqaruvni va mexanizmlarini hamda tashkiliy tuzilmani bozor talablariga mos ravishda takomillashtirish, biznes-jarayonlari texnologiyalashuvini oshirish, jumladan axborot texnologiyalarini rivojlantirish va aksiyadorlar manfaatdorligini oshirish bo'yicha kuchli dividend siyosati amalga oshiriladi. Bank depozit siyosatini amalga oshirishda katta e'tibor uzoq muddatli depozitlar portfelini o'stirishga qaratiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini ikki tomonlama manfaatli asoslarda depozitlarga jalb qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlar

davom ettiriladi. Depozitlarni jalb qilishda bank ularni joylashtirishdan olinadigan marjani hisobga olgan holda foiz stavkasini belgilaydi. Jalb qilingan depozitlardan bank samarali foydalanib omonatchilarning bankka bo'lgan ishonchini yanada oshirib borishi lozim.

Bankning moliyaviy barqaror mijozlari soni ko'payishi va ular hisobraqamlarida ma'lum muddatli bo'sh pul mablag'lari qoldig'i o'sishi bank uchun foizsiz resurslardan foydalanish imkonini kengaytiradi.

Bank kreditlashni kengaytirish uchun xalqaro va xorijiy moliya institutlarining kredit liniyalarini jalb qilish borasida ishlarni faollashtiradi.

Bank uchun moliyaviy barqarorlikni oshirishda daromadlarni ko'paytirish va likvidlikni ta'minlash muhim omil hisoblanadi, bu esa aktiv va passivlarni boshqarishda marja shaklidagi bank daromadini oshirish va ular o'rtasidagi miqdor va muddat mutanosibligini ta'minlashni talab etadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

1. Mijoz bankka qo'ygan muddatsiz depozitlar bo'yicha o'z mablag'ini xohlagan paytda qo'ygan mablag'lari doirasida xohlagan summasida talab qilib olishi mumkin. Bank depozitorning birinchi talabiga ko'ra uning to'lovlari bo'yicha topshirig'ini bajarishi shart.

2. Talab qilib olinguncha (muddatsiz) depozitlar o'zining harakati nuqtai nazaridan tijorat banklarining doimiy barqaror resurslari sifatida maydonga chiqa olmaydi. Demak, bank ularni uzoq muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish jarayonini amalga oshirishga yo'naltira olmasligi mumkin.

3. Depozitorlarning moliyaviy ahvoli o'zgaruvchan bo'lish holati bu mablag'larni tez talab qilib olishga majburlashi mumkin, bu esa o'z navbatida bankning resurs bazasining o'zgarishiga olib keladi.

4. Talab qilib olinguncha depozit egalarining bozor o'zgarishlariga ta'sirchanligi ham banklarning resurs bazasiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Fikrimizcha, tijorat banklari depozitlarning 70 foizidan ortig'i talab qilib olingunga qadar bo'lgan depozitlar salmog'ining o'sish tendentsiyasiga ega

ekanligi banklarning resurs bazasining zaifligidan yaqqol dalolat beradi. Muddatli depozitlar boshqa depozit turlariga nisbatan qimmatroq depozit bo'lsada, bu turdagi depozitlar tijorat banklari uchun mustahkam, bir necha yilga yetarli bo'lgan resurs bazasini yaratishi mumkin.

Jamg'arma depozitlarining depozitlar umumiy hajmida kichik salmoqqa ega ekanligi aholining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini bank muassasalariga jalb qilish borasida sezilarli muammolarning mavjudligidan dalolat beradi. Banklar tomonidan aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilinishi ularning kreditlash bilan bog'liq bo'lgan resurslar salmog'ining oshishiga asosiy zamin yaratadi. Hisobot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, oxirgi yillarda banklarning aholi mablag'larini jalb qilishi bilan bog'liq operatsiyalari salmog'i, ularning aholiga xizmat ko'rsatish ko'lami oshishi natijasida aholining banklardagi pul mablag'larining hajmi ortib bormoqda.

Bankning jalb qilingan mablag'lari tarkibida boshqa banklardan olingan ssudalarni bir yildan ortiq muddatga jalb qilishining asosiy sabablaridan biri bo'lib, bank asosan o'rta va uzoq muddatli investitsiyalashni amalga oshirganligi bois, ushbu resurslar bank uchun qulay resurs bo'lib xizmat qilgan.

2-bob bo'yicha xulosalar

1. "Mikrokreditbank" aktsiyadorlik tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 maydagi PF-3750 sonli Farmoni asosida tashkil etilgan.

2. Bankning 86 ta filiali va 79 ta mini-banklari respublikamizning barcha mintaqalaridagi 365 mingdan ortiq aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlamoqda.

3. Bank o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish, belgilangan prognoz ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash maqsadida korporativ boshqaruv, tashkiliy va nazorat tizimlari samaradorligini yanada oshirib bordi.

4. Tijorat banklari depozit operatsiyalari yordamida tijorat boyliklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin.

5. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

6. Depozit operatsiyalarining obekti bo'lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi.

7. Tijorat banklarining likvidligini tartibga solishda majburiy zaxiralar instrumentidan iqtisodiyot va pul-kredit sohasidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda moslashuvchanlik bilan foydalanib borildi.

8. Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo'lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo'yilgan mablag'larga daromad olish mijozlarning qo'yilma qo'yishga undovchi muhim omil hisoblanadi.

9. Tijorat banklarining kredit potentsiali - bu jalb qilingan mablag'larning kredit va bankning boshqa aktiv operatsiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy chegarasi hisoblanadi.

10. Bank tizimidagi likvidlik darajasini boshqarish va shu orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda majburiy zaxira talablaridan ham keng foydalaniladi. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy hisob varaqlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin.

11. Tijorat banklari faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bu real mavjud resurslar doirasida ish yuritishdir.

12. Real jalb qilingan resurslar doirasida ishlash tamoyili – jalb qilingan depozitlarga bank qiziqishining o'sishiga, davlat miqyosida bo'sh qolgan kredit resurslari uchun sof raqobat rivojlanishiga olib keladi.

13. AT Mikrocreditbankda resurslarni boshqarish siyosati, birinchi navbatda o'z resurs bazasini mustahkamlash orqali o'z mijozlarining bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bankning investitsion faoliyatini moliyalashtirish va keyinchalik bo'sh resurs mablag'larini moliya bozorida joylashtirishga, bankning doimiy likvidligini ta'minlashga qaratilgan holda davom ettirib kelmoqda.

14. Mijoz bankka qoʻygan muddatsiz depozitlar boʻyicha oʻz mablagʻini xohlagan paytda qoʻygan mablagʻlari doirasida xohlagan summasida talab qilib olishi mumkin. Bank depozitorning birinchi talabiga koʻra uning toʻlovlari boʻyicha topshirigʻini bajarishi shart.

15. Talab qilib olinguncha (muddatsiz) depozitlar oʻzining harakati nuqtai nazaridan tijorat banklarining doimiy barqaror resurslari sifatida maydonga chiqa olmaydi. Demak, bank ularni uzoq muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish jarayonini amalga oshirishga yoʻnaltira olmasligi mumkin.

16. Depozitorlarning moliyaviy ahvoli oʻzgaruvchan boʻlish holati bu mablagʻlarni tez talab qilib olishga majburlashi mumkin, bu esa oʻz navbatida bankning resurs bazasining oʻzgarishiga olib keladi.

17. Talab qilib olinguncha depozit egalarining bozor oʻzgarishlariga taʼsirchanligi ham banklarning resurs bazasiga oʻz taʼsirini koʻrsatishi mumkin.

3-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEPOZIT OPERAT-SIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Tijorat banklari faoliyatida depozitlarni jalb qilishning yo‘llari

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2017 yilida majburiy rezerv talablari instrumentidan tijorat banklarining kredit resurslariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishning muhim vositasi sifatida qo‘lladi. Bunda asosiy e’tibor bank tizimida ortiqcha likvidlikni shakllantiruvchi va inflyatsion bosimning oshishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillar xususiyatiga qaratildi.

Bunda majburiy rezerv me’yorlari inflyatsiya va pul massasining belgilangan maqsadli parametrlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida muddati 1 yilgacha bo‘lgan depozitlar uchun 15 foiz, muddati 1 yildan 3 depozitlar uchun yilgacha bo‘lgan depozitlar uchun 12 foiz, muddati 3 yildan ortiq bo‘lgan 10,5 foiz miqdorida o‘zgartirilmasdan qoldirildi⁴⁶.

11-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki majburiy zahira stavkalarining tabaqalashtirilgan tarkibi, foizda⁴⁷

Tijorat banklari depozitlarining muddatlari	Markaziy bank majburiy zaxira stavkalari, foizda
Talab qilib olingunga qadar depozitlar va 1 yilgacha muddatli depozitlar	15,0
1 yildan 3 yilgacha muddatli depozitlar	12,0
3 yildan ortiq muddatli depozitlar	10,5

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, bank depozitlarining muddati qanchalik uzoq bo‘lsa, Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari darajasi shunchalik past bo‘ladi va aksincha.

⁴⁶ 2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga mo‘ljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz

⁴⁷ Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

2017 yil davomida Respublikada tijorat banklari jami majburiyatlari 70,9 trln. soʻmga yoki 1,9 barobarga (2016 yilda 1,3 barobarga) oʻsib, 2018 yilning 1 yanvar holatiga 146 trln. soʻmni tashkil etdi. Bunda jami majburiyatlar oʻsishining 71 foizi yoki 50 trln. soʻmi milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi natijasida chet el valyutasida jalb qilingan kreditlar va depozitlarning milliy valyutadagi qiymatining oshishi hisobiga roʻy berdi.⁴⁸

12-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklari jami majburiyatlarining tarkibi⁴⁹

Majburiyatlar	01.01.2016 y.		01.01.2017 y.	
	mlrd. soʻm	foizda	mlrd. soʻm	foizda
Jalb qilingan kreditlar	26 786	36	72 819	50
Jami depozitlar	36 341	48	58 668	40
Muomalaga chiqarilgan qimmatli qogʻozlar	1 058	1	1 100	0,8
Toʻlanishi lozim boʻlgan hisoblangan foizlar	375	0,5	1 049	0,7
Boshqa banklar mablagʻlari	3 995	5	5 763	4
Markaziy bankning vakillik hisobvaragʻi	263	0,4	537	0,4
Boshqa majburiyatlar	6 250	8	6 019	4,1

Maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, tijorat banklari jami majburiyatlarining 82 foizini ichki majburiyatlar, shu jumladan, 31,7 foizini Oʻzbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi resurslari hamda 18 foizini chet el banklari va xalqaro moliya tashkilotlari kredit liniyalari mablagʻlari tashkil etadi.

Bunda hisobot yilida valyuta siyosatining liberallashtirilishi doirasida milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan ayirboshlash kursining qariyb 2,5 barobarga pasayishi natijasida xorijiy kredit mablagʻlarining banklar jami majburiyatlaridagi ulushi 2017 yil davomida 36 foizdan 50 foizgacha oshdi. Shu

⁴⁸ 2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga moʻljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz

⁴⁹ Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017 yil hisoboti maʼlumotlari

bilan birga, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan jalb qilingan depozitlarning banklar jami majburiyatlaridagi ulushi 2017 yil davomida 48,4 foizdan 40,2 foizgacha pasaydi. 2017 yil davomida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi yil boshiga nisbatan 61,4 foizga (2016 yilda 24 foiz) oshib, hisobot sanasiga 58,7 trln. so'mni tashkil qildi, shundan 51 foizi milliy valyutadagi va 49 foizi xorijiy valyutadagi depozitlar hissasiga to'g'ri keladi.

Respublikamizning tijorat banklarida depozit siyosatining samaradorligini oshirish borasida o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Bularni shunday ifodalash mumkin:

-Respublikamiz tijorat banklarining depozit bazasining zaifligi muammosi. Respublikamizning bir qator yirik tijorat banklarining depozit bazasining umumiy hajmida transaksion depozitlarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Bu holat tijorat banklarining depozit bazasining zaif ekanligidan dalolat beradi. o'z navbatida, tijorat banklarining depozit bazasining zaif ekanligi ularga aktiv operatsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini bermaydi. Bundan tashqari, transaksion depozitlarning yirik salmoqqa ega ekanligi tijorat banklarining likvidliligiga salbiy ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining faoliyatiga nisbatan qo'llanilayotgan joriy likvidlilik koeffitsienti tijorat banklarining likvidli aktivlarini transaksion depozitlar va bank to'lovlarining umumiy summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bankda transaksion depozitning summasi qanchalik katta bo'lsa, u shunchalik katta miqdorda likvidli aktivlarni saqlab turishga majbur bo'ladi. Agar respublikamizning yirik tijorat banklarida likvidli aktivlarning mutlaq asosiy qismini "Nostro" vakillik hisobvaraqlarining qoldiqlaridan iborat ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur holat bank aktivlarining daromadliligiga jiddiy ziyon yetkazadi. Hozirgi vaqtda tijorat banklarining joriy likvidliligiga nisbatan belgilangan mazkur talabning minimal darajasi 30 foizni tashkil qiladi. Bu esa, nisbatan yuqori

ko'rsatkich bo'lib, banklarni yirik miqdorda likvidli aktivlarni saqlab turishga majbur qiladi.

Rivojlangan industrial davlatlar amaliyotida yuqori likvidlilik xususiyatiga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarning emissiya hajmi juda katta bo'lib, bu holat tijorat banklariga likvidli aktivlarning ma'lum qismini ana shunday qimmatli qog'ozlar shaklida shakllantirish imkonini beradi. Respublikamizda esa, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarning emissiya hajmi nisbatan kichik ekanligi qimmatli qog'ozlar bozorining tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

2. Respublikamiz banklarida mijozlarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini muddatli va jamg'arma depozit hisobraqamlariga jalb etish borasidagi tadbirlarning samaradorlik darajasining muammosi.

Ushbu muammo banklarning foydasini taqsimlash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Buning boisi shundaki, mijozlarni o'z pul mablag'larini banklarning muddatli va jamg'arma depozit hisobraqamlariga qo'yishga undaydigan, rag'batlantiradigan asosiy omil bu depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasi hisoblanadi. Shuning uchun ham rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida depozitlarga to'lanadigan foizlar jami foizli xarajatlarning mutlaq asosiy qismini tashkil etadi.

Respublikamizning bir qator yirik tijorat banklarida, xususan, Milliy bankda foizli xarajatlarning asosiy qismi banklararo kreditlar uchun to'langan foizlarga to'g'ri keladi. Banklararo kreditlar esa, moliyalashtirishning nisbatan qimmat bo'lgan shakli hisoblanadi. Demak, bu holat bankning xarajatlarini o'sishiga olib keladi.

3. Respublikamiz bank amaliyotida tijorat banklarining resurs bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan majburiy zahira talabnomalarining mavjudligi. Amaldagi zahira talablariga ko'ra, respublikamizning tijorat banklari depozitlarning barcha shakllariga nisbatan 15, 12 va 10.5 foizli stavkada majburiy zahira ajratmalari qilishlari shart. Amaldagi majburiy zahira stavkalari darajasini nisbatan yuqori

ekanligi tijorat banklarining depozitlarga foiz to'lash imkoniyatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Majburiy zahira stavkalarini depozitlarning muddati va summasiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish lozim.

Ma'lumki, tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyati darajasiga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, ulardan biri bu Respublika Markaziy Bankining majburiy zahiralar fondiga ajratmalar mexanizmi hisoblanadi. Respublikamizda hozirgi kunda ushbu fondga ajratma me'yori tijorat banklarining depozitlariga nisbatan 15 foiz, (jismoniy shaxslarning muddatli, hukumat depozitlari hamda xorijiy valyutadagi depozitlar bundan mustasno), bu hol tijorat banklarining manfaatlariga zid keladi, chunki birinchidan, ushbu banklarning resurs bazalari va shunga mos ravishda aktivlarga qilinadigan qo'yilmalaridan oladigan daromadlari miqdori kamaysa, ikkinchidan, ushbu jalb qilingan depozitlar bahosi oshib ketadi.

Sanab o'tilgan holat tijorat banklarining rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga resurslar baxosining oshishiga olib keladi. Bunday vaziyatda tijorat banklari foiz daromadlari olish maqsadida aktivlarni yanada yuqoriroq foiz stavkalarida joylashtirishga majbur bo'ladilar va oqibatda tijorat banklari mablag'larni o'rta va uzoq muddatga ishlab chiqarish sohasiga qo'yilma qilgandan ko'ra, tezda va katta miqdorda daromad keltiradigan noishlab chiqarish sohasiga qo'yilma qilishni afzal ko'radilar.

Demak, Markaziy bank yuqori zahira stavkalarini transaksion depozitlar va korxonalarining jamg'arma depozitlariga nisbatan belgilashi lozim. Muddatli depozitlarga nisbatan zahira stavkalarini belgilashda ularning muddatini hisobga olishi kerak. Muddatli depozit qanchalik uzoq muddatga jalb qilingan bo'lsa, majburiy zahirasi shuncha past belgilanishi lozim.

2. Depozitlarning o'z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta'minlash maqsadida tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va tahlilni kuchaytirish lozim. Bu muammo rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida ham mavjud.

Tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida kreditlarning salmog'i yuqori bo'lganligi sababli, ularni o'z vaqtida qaytmasligi tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga qobilligiga salbiy ta'sir qiladi. Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytmasligi bankning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu ta'sir birinchi navbatda banklarning depozitlarga foiz to'lash imkoniyatini cheklanib qolishiga olib keladi. Jahon Tiklash va Taraqqiyot bankining eksperti Kris Barltrop o'zining tadqiqotlarida shunday holatni bayon etadiki, bir qator rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklarining foizli daromadlarini depozitlarga to'lanadigan xarajatlarni moliyalashtirishga yetmay qolishi natijasida, ushbu banklar kapital va jalb qilingan mablag'lar hisobidan depozitlarga foizlar to'lash hollariga yul qo'yganlar. Bu esa, bankning resurslar bazasiga va to'lovga qobilligiga salbiy ta'sir qiladi.

3. Keng omma omonatchilarning mayda jamg'armalarini jalb qilish maqsadida pochta jamg'armasi tashkiloti tizimini rivojlantirish zarur. Buning uchun xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish zarur. Xususan, bu borada Yaponiya tajribasishuni ko'rsatadiki, Pochta jamg'armasi tashkilotlari keng omma omonatchilaridan mayda jamg'armalarni omonatlarga jalb qiladi va bu jalb qilingan mablag'larni Yaponiya Moliya vazirligiga ma'lum bir foizda joylashtiradi. Yaponiya Moliya vazirligi pochta jamg'armasi tashkiloti tomonidan jalb qilingan omonatlarning saqlanishi, to'lanishiga kafil bo'ladi. Ushbu vazirlik tomonidan depozitga olingan mablag'lar Yaponiya taraqqiyot bankiga, har-xil davlat fondlariga, hamda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini qo'llab quvvatlashga yo'naltiriladi.

4. Depozit bazasini shakllantirishda kredit oluvchilarni arizalarida ko'rsatilgan muddatlarni e'tiborga olish yoki jalb qilingan depozitlarni muddatlari bo'yicha kredit portfelini shakllantirish lozim. Buni depozit va kreditlar

muvozanatini saqlash bo'yicha o'rnatilgan me'yorlarga to'liq amal qilish ko'zda tutilishi lozim. Buning uchun muvozanatning optimal variantini ishlab chiqish zarur.

3.2. Banklarning depozit operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari

O'zbekiston tijorat banklari bozor munosabatlariga o'tish sharoitida bank sohasining rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olib, ish usullarini, avvalo yakka omonatchilarning jamg'armalarini boshqarish borasidagi ish usullarini takomillashtira borishi kerak. Chet el va mamlakatimizdagi tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, omonotlar bo'yicha to'lanadigan foizlar miqdori omonotchilar uchun eng muhim rag'batlantiruvchi omillardan biridir.

Rasman e'lon qilinadigan balans hisobotlarida tijorat banklarining depozit bazasi uchta shaklda namoyon bo'ladi:

1. Muddatsiz depozitlar.
2. Muddatli depozitlar.
3. Jamg'arma depozitlari.

Muddatsiz depozitlarga mijozlarning joriy hisobraqamlaridagi pul mablag'lari va boshqa tijorat banklarining «Vostro» vakillik hisobvarag'ining qoldiqlari kiradi. Muddatsiz depozitlar mijozlarga ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun olinadigan komission to'lovlar uchun manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham tijorat bankida mijozlar qanchalik ko'p bo'lsa va ularning pul oqimi qanchalik kuchli bo'lsa, bankning komission daromad olish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ammo muddatsiz depozitlardagi bank faoliyatida muddatli depozit shartnomasi tuzmasdan resurs sifatida foydalanish xuquqiy jihatdan ta'qiqlanadi. Tijorat banklarining depozit bazasining tarkibida muddatsiz depozitlar salmog'ining yuqori bo'lishi ularning sof foizli daromadlari hajmiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, rivojlangan xorijiy davlatlarda tijorat banklari sof foizli daromadlarining barqaror darajasini saqlab turish maqsadida muddatsiz depozitlarning depozit bazasi hajmidagi oqilona

salmog'ini shakllantiradilar. Bu salmoq G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 45-50 foizni tashkil qiladi.

Amaliyotda shunday holatlar ham mavjudki, yirik kreditlar berish bilan shug'ullanayotgan tijorat banklari doimiy ravishda banklararo kreditlarni jalb qiladilar. Mazkur banklar, odatda, moliyaviy jihatdan barqaror banklar bo'lib, yuqori rentabelli loyihalarni kreditlash orqali yuqori foizli daromad oladilar.

Jamg'arma depozitlari bankning boshqa resurs manbalari ichida nisbatan eng arzon resurs hisoblanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda aholining muddatli omonatlarini jalb qilish tijorat banklari depozit siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqishda depozit siyosatining umumiy va xususiy mezonlarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari depozit siyosatining umumiy mezonlariga quyidagilar kiradi:

- bank faoliyatining barqarorligi, ishonchliligini saqlab turish maqsadida uning depozit, kredit va boshqa aktiv operatsiyalarining o'zaro bog'liqligi;

- bank risklarini minimallashtirish maqsadida uning resurslarini diversifikatsiyalash;

- bank depozit portfelini mijozlar, mahsulotlar va bozorlar bo'yicha segmentlashtirish;

- mijozlarning turli guruhlariga nisbatan tabaqali yondoshuv;

- bank tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar raqobatchi banklarning xizmatlaridan farq qilishi lozim;

- barqaror va nobarqaror resurslarning oqilona nisbatini shakllantirish zarur;

- bank depozit portfelining shakllanishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni hisobga olish lozim.

Tijorat banki depozit siyosatining xususiy mezonlariga quyidagilar kiradi;

- mijozlarning alohida guruhidan depozitlar jalb qilishni kuchaytirish;
- bankning depozit siyosatini alohida olingan hududlarda faollashtirish;
- omonatlarning aniq turlari bo'yicha mablag'lar jalb qilishni kuchaytirish.

Tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqishda bir qator omillarni hisobga olish zaruriy holat hisoblanadi. Ana shunday asosiy omillardan biri tijorat banklari tomonidan muddatli va jang'arma depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalarini shakllantirish hisoblanadi. Tijorat banklari depozitlarga ularning bozor foiz stavkasi darajasida va undan sezilarli darajada farq qilmaydigan stavkalarda foizlar to'lashi lozim. Ammo buning uchun depozitlarni to'lanayotgan stavkadan yuqori stavkada joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Ssuda kapitallari bozorida iqtisodiy kon'yukturaning o'zgarishi tijorat banklarini foiz marjasini o'zgartirishga majbur qilishi mumkin. Ayrim hollarda tijorat banklarining marjasini depozitlarga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish yo'li bilan qisqartirishga majbur bo'ladilar.

Tijorat banklarining depozit siyosatiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil Markaziy bankning majburiy zaxira siyosati hisoblanadi. Majburiy zaxira stavkalarining oshirilishi tijorat banklarining depozitlarga foiz to'lash imkoniyatini pasaytiradi. Bundan tashqari, majburiy zaxira stavkalarining oshirilishi bank reurslarining likvidliligini pasayishiga olib keladi.

Tijorat banklarining depozit siyosatini shakllantirishda hisobga olinadigan uchinchi omil tijorat bankining likvidligi va to'lovga qobilligining o'zgarishi hisoblanadi. Tijorat banki balansining joriy likvidlik darajasini pasayishi bankning depozitlar va ularga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarish imkoniyatini pasaytiradi.

Banklarning balansini umumiy likvidligining yomonlashuvi muddatli va jang'arma depozitlarini o'z vaqtida hamda to'liq qaytarilmaslik holatlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bank balansining joriy va

umumiy likvidliligini ta'minlash tijorat banklari depozit siyosatining samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarining depozit siyosatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarining o'zgarishi hisoblanadi. Agar Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarida ko'proq qimmatli qog'ozlarni sotuvchi bo'lib ishtirok etsa, bu holat tijorat banklarining likvidliligini pasayishiga olib keladi. Bu esa, banklarning depozit siyosatiga tegishli o'zgarishlarni kiritilishiga sabab bo'ladi.

Tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadigan asosiy omillardan yana biri bank xizmatlari milliy bozoridagi o'zgarishlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikamizda bir qator tijorat banklarining resurs bazasining nisbatan zaifligi ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sonini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa, aholining va korxonalarining pul mablag'larini keng ko'lamda bank muassasalariga jalb qilish jarayoniga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqishda uning iqtisodiy asoslari birlamchi ahamiyatga ega bo'lib, doimiy ravishda tahlil qilib borishni taqozo qiladi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Jami depozitlar tarkibida muddatli depozitlarning salmog'ini oshirish maqsadida banklarning foiz siyosatining samaradorligini oshirish lozim. Muddatli depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasi mijozlarning talabiga javob beradigan bozor stavkalariga yaqin bo'lishi lozim. Buning ustiga, depozitlarga foiz to'lashda inflyatsiya darajasi hisobga olinishi lozim. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kreditlarining foiz stavkasini shakllanish jarayoniga aralashuvining har qanday shakliga chek qo'yilishi lozim. Kreditlar bank aktivlarining asosiy turi bo'lganligi sababli, ularning foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilash banklarning depozitlarga foiz stavkalarini belgilash jarayoniga ta'sir qiladi. Kreditlarning foiz stavkasini pasayishi yuz bergan sharoitda banklar

depozitlarning foiz stavkasini ham pasaytirishga majbur bo'ladilar. Bu holat, pirovard natijada, mijozlarning noroziligiga sabab bo'lishi mumkin.

2. Aholining omonatlarini banklarga keng ko'lamda jalb qilishni taminlash maqsadida banklarning joriy likvidligining barqaror darajasini ta'minlash lozim. Bunda muddati kelgan omonatlarning va ularga hisoblangan foizlarning naqd pulda o'z vaqtida va to'liq berilishini ta'minlashga e'tiborni qaratish lozim.

3. Mijozlardan xorijiy valyutadagi mablag'larni keng ko'lamda jalb etish maqsadida xorijiy valyutadagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish lozim. Agar respublikamiz tijorat banklarining xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan ssuda va boshqa aktiv operatsiyalari rivojlanganda edi, ular mijozlarning xorijiy valyutadagi depozitlariga nisbatan yuqori foiz to'lagan bo'lar edi.

4. Depozitlarga to'lanadigan foizli xarajatlar salmog'ining barqarorligini ta'minlash lozim. Buning uchun oylik va choraklik davriy oraliqlarda foizli xarajatlar tarkibida depozitlarga to'langan xarajatlarning salmog'ini tahlil qilib borish zarur. Ushbu salmog'ning pasayishi kuzatilgan taqdirda, buning sabablarini aniqlash lozim. Ko'pchilik hollarda depozitlarga to'langan foizli xarajatlar salmog'ining pasayishi qimmatli kog'ozlarga to'langan foizli xarajatlar salmog'ining oshishi hisobiga yuz berishi mumkin.

5. Tijorat banklarining foiz marjasini xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan mo'tadil darajaga yetkazish lozim. Buning uchun foiz marjasini muddatli depozitlarga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish hisobiga qisqartirishimiz lozim. Ayni vaqtda, foiz marjasini qisqartirish har bir tijorat banki daromadligining «o'lik nukta»sini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

6. Majburiy zaxira stavkalarini depozitlarning muddati va summasiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish lozim. Nisbatan yuqori zaxira stavkalarini muddatsiz depozitlarga nisbatan belgilash lozim. Muddatli depozitlarga nisbatan zaxira stavkalarini belgilashda ularning muddatini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Depozit qanchalik uzoq muddatga jalb qilingan bo'lsa, majburiy zaxirasi shuncha past belgilanishi lozim.

7. Depozitlarning o'z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta'minlash maqsadida tijorat banklarining likvidligi va to'lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va tahlilni kuchaytirish lozim.

Bank tizimini ishonchli tarzda himoya qilishni ta'minlaydigan huquqiy tartibga solish me'yorlarini yaratish lozim. Masalan, iqtisodiy normativlar barcha tijorat banklariga nisbatan bir xil tarzda qo'llanilishi lozim. Aks holda, ayrim banklar erkin raqobat muhitidan chetga chiqib qoladi.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvining qisqarishi va moliyaviy munosabatlarni erkinlashtirilishi barqaror pul-kredit tizimini rivojlantirishga imkoniyat tug'diradi. Bank tizimini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish orqali umumiy nobarqarorlik darajasini pasaytirish mumkinligi bank faoliyatini tartibga solish zarurligidan dalolat beradi.

Depozit operatsiyalari tijorat banklarining depozit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi, ya'ni:

- depozit operatsiyalari bank daromadining oshishga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;
- bank balansining likvidligini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo'yilmalarga e'tibor qaratish lozim;
- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog'liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralarini ko'rish zarur va boshqalar.

Hozirgi vaqtda bu muhim omil hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz aholisining pullik hisob-kitoblarning asosiy qismi naqd pullarda amalga oshiriladi. Ular ma'lum bir tadbirlarni kelgusida moliyalashtirish maqsadida jamg'aradilar.

Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash masalasi hal qilinayotganda, albatta, aholi va korxonalarining bank obligatsiyalaridan olayotgan daromadlarini soliqqa tortish masalasiga aniqlik kiritish lozim. Chunki bank obligatsiyalarini investorlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida soliqqa tortish mexanizmini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

3-bob bo'yicha xulosalar

1. Respublikamizning tijorat banklarida depozit siyosatining samaradorligini oshirish borasida o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

2. Muammolarni hal etish tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish imkonini beradi.

3. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

-majburiy zahira stavkalarini depozitlarning muddati va summasiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish lozim;

-depozitlarning o'z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta'minlash maqsadida tijorat banklarining likvidliligi va to'lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va tahlilni kuchaytirish lozim;

-keng omma omonatchilarning mayda jamg'armalarini jalb qilish maqsadida pochta jamg'armasi tashkiloti tizimini rivojlantirish zarur;

-depozit bazasini shakllantirishda kredit oluvchilarni arizalarida ko'rsatilgan muddatlarni e'tiborga olish yoki jalb qilingan depozitlarni muddatlari bo'yicha kredit portfelini shakllantirish lozim.

4. Muddatsiz depozitlar mijozlarga ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun olinadigan komission to'lovlar uchun manba bo'lib hisoblanadi.

5. Tijorat banklarining depozit bazasining tarkibida muddatsiz depozitlar salmog'ining yuqori bo'lishi ularning sof foizli daromadlari hajmiga salbiy ta'sir qiladi.

6. Jamg'arma depozitlari bankning boshqa resurs manbalari ichida nisbatan eng arzon resurs hisoblanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda aholining muddatli omonatlarini jalb qilish tijorat banklari depozit siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

7. Jami depozitlar tarkibida muddatli depozitlarning salmog'ini oshirish maqsadida banklarning foiz siyosatining samaradorligini oshirish lozim.

8. Aholining omonatlarini banklarga keng ko‘lamda jalb qilishni taminlash maqsadida banklarning joriy likvidligining barqaror darajasini ta’minlash lozim.

9. Mijozlardan xorijiy valyutadagi mablag‘larni keng ko‘lamda jalb etish maqsadida xorijiy valyutadagi depozitlarga to‘lanadigan foiz stavkalarini oshirish lozim.

10. Depozitlarga to‘lanadigan foizli xarajatlar salmog‘ining barqarorligini ta’minlash lozim.

11. Majburiy zaxira stavkalarini depozitlarning muddati va summasiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirish lozim.

12. Depozitlarning o‘z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta’minlash maqsadida tijorat banklarining likvidligi va to‘lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va tahlilni kuchaytirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi.

Resurslar barqarorligi masalalarini ko'rayotganda omonatlarni kafolatlanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Alohida tijorat banklari uchun bank depozitlari tarkibiy tuzilishi turli xillik bilan farqlanadi. Bankning o'z mablag'lari va qarzga olingan yoki sotib olingan mablag'lari yig'indisi tijorat banklarning resurs bazasini tashkil kiladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida olingan pul mablag'lari ular resurslarining umumiy hajmida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi va mazkur resurslar asosan banklarning uzoq muddatli operatsiyalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi. Taraqqiy etgan mamlakatlar tijorat banklarining resurslari hajmida banklararo kreditlar salmog'ining past ekanligi banklararo kreditlar bahosi yuqori bo'lgan resurs ekanligi va depozit bazasi yetarli bo'lgan tijorat banklari banklararo kreditlardan resurs sifatida foydalanishga ehtiyoj sezmaydi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari resruslarni jalb qilishda bir qator me'yoriy hujjatlarga asoslanadi.

Tijorat banklari depozit operatsiyalari yordamida tijorat boyliklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

Depozit operatsiyalarining obekti bo'lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi. Tijorat banklarining likvidligini tartibga

solishda majburiy zaxiralar instrumentidan iqtisodiyot va pul-kredit sohasidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda moslashuvchanlik bilan foydalanib borildi. Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo'lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo'yilgan mablag'larga daromad olish mijozlarning qo'yilma qo'yishga undovchi muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklarining kredit potentsiali - bu jalb qilingan mablag'larning kredit va bankning boshqa aktiv operatsiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy chegarasi hisoblanadi. Bank tizimidagi likvidlik darajasini boshqarish va shu orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishda majburiy zaxira talablaridan ham keng foydalaniladi. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy hisob varaqlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bu real mavjud resurslar doirasida ish yuritishdir. Real jalb qilingan resurslar doirasida ishlash tamoyili – jalb qilingan depozitlarga bank qiziqishining o'sishiga, davlat miqyosida bo'sh qolgan kredit resurslari uchun sof raqobat rivojlanishiga olib keladi.

AT Mikrokreditbankda resurslarni boshqarish siyosati, birinchi navbatda o'z resurs bazasini mustahkamlash orqali o'z mijozlarining bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bankning investitsion faoliyatini moliyalashtirish va keyinchalik bo'sh resurs mablag'larini moliya bozorida joylashtirishga, bankning doimiy likvidligini ta'minlashga qaratilgan holda davom ettirib kelmoqda.

Mijoz bankka qo'ygan muddatsiz depozitlar bo'yicha o'z mablag'ini xohlagan paytda qo'ygan mablag'lari doirasida xohlagan summasida talab qilib olishi mumkin. Bank depozitorning birinchi talabiga ko'ra uning to'lovlari bo'yicha topshirig'ini bajarishi shart. Talab qilib olinguncha (muddatsiz) depozitlar o'zining harakati nuqtai nazaridan tijorat banklarining doimiy barqaror resurslari sifatida maydonga chiqa olmaydi. Demak, bank ularni uzoq muddatli kreditlash yoki moliyalashtirish jarayonini amalga oshirishga yo'naltira olmasligi mumkin.

Depozitorlarning moliyaviy ahvoli o'zgaruvchan bo'lish holati bu mablag'larni tez talab qilib olishga majburlashi mumkin, bu esa o'z navbatida bankning resurs bazasining o'zgarishiga olib keladi.

Talab qilib olinguncha depozit egalarining bozor o'zgarishlariga ta'sirchanligi ham banklarning resurs bazasiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Respublikamizning tijorat banklarida depozit siyosatining samaradorligini oshirish borasida o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Muammolarni hal etish tijorat banklarining depozit siyosatini takomillashtirish imkonini beradi. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- majburiy zahira stavkalarini depozitlarning muddati va summasiga bog'liq ravishda tabaqalashtirish lozim;

- depozitlarning o'z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta'minlash maqsadida tijorat banklarining likvidligi va to'lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va tahlilni kuchaytirish lozim;

- keng omma omonatchilarning mayda jamg'armalarini jalb qilish maqsadida pochta jamg'armasi tashkiloti tizimini rivojlantirish zarur;

- depozit bazasini shakllantirishda kredit oluvchilarni arizalarida ko'rsatilgan muddatlarni e'tiborga olish yoki jalb qilingan depozitlarni muddatlari bo'yicha kredit portfelini shakllantirish lozim.

Muddatsiz depozitlar mijozlarga ko'rsatilgan bank xizmatlari uchun olinadigan komission to'lovlar uchun manba bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklarining depozit bazasining tarkibida muddatsiz depozitlar salmog'ining yuqori bo'lishi ularning sof foizli daromadlari hajmiga salbiy ta'sir qiladi.

Jamg'arma depozitlari bankning boshqa resurs manbalari ichida nisbatan eng arzon resurs hisoblanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda aholining muddatli omonatlarini jalb qilish tijorat banklari depozit siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jami depozitlar tarkibida muddatli depozitlarning salmog'ini oshirish maqsadida banklarning foiz siyosatining samaradorligini oshirish lozim.

Aholining omonatlarini banklarga keng ko‘lamda jalb qilishni taminlash maqsadida banklarning joriy likvidligining barqaror darajasini ta‘minlash lozim. Mijozlardan xorijiy valyutadagi mablag‘larni keng ko‘lamda jalb etish maqsadida xorijiy valyutadagi depozitlarga to‘lanadigan foiz stavkalarini oshirish lozim.

Depozitlarga to‘lanadigan foizli xarajatlar salmog‘ining barqarorligini ta‘minlash lozim. Majburiy zaxira stavkalarini depozitlarning muddati va summasiga bog‘liq ravishda tabaqalashtirish lozim. Depozitlarning o‘z vaqtida mijozlarga qaytarilishini ta‘minlash maqsadida tijorat banklarining likvidligi va to‘lovga qobilligi ustidan amalga oshiriladigan nazorat va tahlilni kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. Adolat, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun, T.: “O‘zbekiston”, 1995.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. T.: “O‘zbekiston”, 1996.
5. O‘zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. T.: “O‘zbekiston”, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni T.: “O‘zbekiston” 2003.
7. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yilning 23 martidagi PQ-3620-sonli Qarori.
9. “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli Farmoni.
10. “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi gi PQ -3066 Qarori.
11. “Investitsiya loyihalarining loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqish sifatini oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 martdagi PQ-2863 Qarori.

12. “Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi PQ-2777 Qarori.
13. «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari» to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. 2017 yil 15 avgust.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo‘jalik sub‘ektlari bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishni yanada rag‘batlantirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 06.04.2009 yildagi PQ-1090 Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4057 sonli “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 28 noyabr 2008 yildagi Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 20 fevral 2008 yildagi PF-3968- sonli Farmoni.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 16.12.2017 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // Xalq so‘zi gazetasi. 16 yanvar 2017 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

III.Sohaga oid me‘yoriy hujjatlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 26 avgustda 2711-son bilan ro‘yxatga olingan.

2. “Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo‘yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to‘g‘risidagi nizom”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015 yil 3 iyulda 2692-son bilan ro‘yxatga olingan.

3. “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2015 yil 14 iyulda 2696-son bilan ro‘yxatga olingan.

4. “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yilgan talablar to‘g‘risida”gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2015 yil 6 iyulda 2693-son bilan ro‘yxatga olingan.

5. “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2015 yil 13 avgust 2709-son biln ro‘yxatga olingan.

6. “Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida nizom”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011 yil 25 mayda 2229-son bilan ro‘yxatga olingan.

7. “Tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o‘tkaziladigan majburiy rezervlari to‘g‘risidagi nizom”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 9 sentyabrda 2004-son bilan ro‘yxatga olingan.

8. “O‘zbekiston Respublikasida Banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida” Yo‘riqnoma. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2008 yilda 27 iyunda 1834-son bilan ro‘yxatga olingan.

IV.Asosiy adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh. “Bank ishi”. Darslik. –Т.:Moliya, 2016. -579 b.
2. Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазовой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2012. - 400с.
3. Балабанов А.И., Боровкова Вик. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2014.-448с.
4. Банковские операции: учеб. пособ. для средн. Проф. Образования / под ред. Ю.И. Коробова. – М.: Магистр, 2014. – 446 с.
5. Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов ; под ред. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2009. - 384 с.
6. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник.- 2-е изд – СПб: Питер 2013- 384 с.
7. Э.Рид, Р. Коттер, Э.Пилл ва Р.Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991г. стр.-16
8. Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дело. Перевод с англ. Москва инфра 2006 г. стр.-102.
9. Варламова Т.П. Валютные операции. Учеб.пос. – М.: «Дашков и К», 2011. 272 с.
10. Деньги. Кредит. Банки. Учебник. / Е.Ф. Жуков и др. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014. – 783 с.
11. Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2014 – 656с. 2 экз.
12. Жарковская. Е.П. Банковское дело: Учеб. - М: «ОМЕГА -Л», 2014 – 476 с.
13. Краливецкая Л.Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2013. – 280 с.
14. Куликов А.Г. Деньги, Кредит, банки: учебник. – М.: КНОРУС, 2012. 656 с.

15. Rashidov O.Yu. va boshqalar Pul, kredit va banklar, Toshkent 2012 y.
16. Rashidov O.Yu, Tojiev R., Do'stqobilov U. Markaziy banking monetar siyosati. T.: TDIU nashriyoti. 2012.
17. Сухарев О.С. и др. Экономическая оценка инвестиций: учеб.- прак. пособ. – М.: Альфа-Пресс, 2012. – 244 с.
18. Toymuxamedov I.R. Bank ishi. O'quv qo'llanma. -T.TDIU, 2012.
19. Temirov A.A. Banklarda buxgalteriya hisobi va operativ texnika. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU. 2012.
20. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. - М.: 2006 стр. 68.

V.Qo'shimcha adabiyotlar

1. Балабанов А.И., Боровкова В. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2012.-448с.
2. Балдин К.В., Уткин В.Б. Информационные системы в экономике: Учебник. – 2-е изд. – М.: «Дашков – К^о», 2013.- 395 с.
3. Банки и небанковские кредитные организации и их операции: для юристов и экономистов / Под редакцией СВ. Симоновича. — СПб.: Питер, 2014. — 688 с.
4. Банки и небанковские кредитные организации и их операции: Учебник / Под ред. Е.Ф. Жукова. — М.: Вузовский учебник, 2014. — 491с.
6. Банковские информационные системы: Учебник / Под редакцией профессора В.В. Дика. М.: Маркет ДС, 2014. – 816 с.
7. Mullajonov F.M. «O'zbekiston Respublikasi bank tizimi», T.: O'zbekiston. 2001.
8. Сборник задач по банковскому делу: Учеб пособие. Под ред. А.И. Валенцовой. – М.: Финансы и статистика, 2014.-624с.
9. Соколов Ю.А., Амасова Н.А. Система страхования банковских рисков. Науч изд.-М.: ООО изд Элит, 2012. –288с.
10. Сухова Л.Ф. Практикум по анализу финансового состояния и оценки кредитоспособности банка-заёмщика. -М.: Финансы и статистика, 2011-152с.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

1. Abdullayev A. Bank likvidligini boshqarishdagi ilmiy-nazariya evolyutsiyasining dalzarb masalalari // Biznes-ekspert. № 3(63) 06.03.2013.
2. 2017 yil pul-kredit sohasi tahlili va 2018 yilga mo‘ljallangan monetar siyosat. www.cbu.uz.
3. “Bozor, pul va kredit”// №1-12 2016, №1-12, 2017 yil.
4. Bank axborotnomasi// 2015 yil №1-52, 2016 yil №1-52, 2017 yil № 1-52.
5. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar // elektron jurnali. №1-6 2015 yil, № 1-6 2016 yil, № 1-6 2017 yil.
7. Moliya va bank ishi // elektron jurnali. №1-6 2014 yil, № 1-6 2015 yil, № 1-6 2016 yil.
8. Ahbor-Reyting reyting agentligining bank sektori bo‘yicha analitik hisobot materiallari.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari
12. AT Mikro kreditbankning 2015-2016-2017 yil bank hisoboti ma’lumotlari

VII. Internet saytlari

1. www.thebanker.com
2. www.bankinfo.uz
3. www.lex.uz
4. www.cbu.uz
5. www.mikrokreditbank.uz
6. www.bank.uz